

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALK TA'LIM VAZIRLIGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

DEFEKTOLOGIYA

faniga kirish

muallif: Ajiniyoz nomidagi NDPIning Boshlang'ich ta'lim
uslubiyoti kafedrasida assistent-o'qituvchisi
J.Abdijabbarova

NUKUS – 2015 YIL

So'z boshi

Respublikamiz mustakillikka erishganiga 10 yil tuldi. Iktisodiyotning barcha tarmoklarida mustakillikni barkarorlashtirish ustida ish olib borilmokda.

Zotan, kelgusida mustaqil respublikaning kelajagini bugungi o'quvchilar, talabalar, malakali, bilimdon, uddaburon kadrlar hal qiladilar. Jayta qurish davrida oliy o'quv yurtlarining ahamiyati yanada oshmokda. CHunki ular kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan halq xujaligining barcha tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar, ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun mutaxassis tayyorlash bilan birga, ilm-fanning hamma jabhalarida yirik tadqiqotlarni amalga oshirmokdalar. Ushbu sohadagi ijodiy-ilmiy ishlarni har tomonlama sermahsul qilish uchun talabalarni oliy bilimgox xayotiga tezroq odatlantirish, oliy maktab mezonlarini o'zlashtirish va uning sirlarini mukammal bilib olish, o'qituvchi-defektolog kasbining zarurligi muhimligi, jamiyatda tutgan o'rni va yuksak vazifasi kabilarni to'laroqtushuntirish maksadida I kurslarda "Maxsus pedagogika" fani o'quv jarayoniga joriy etilgan. Bu fan dastlab "Mutaxassislikka kirish" bo'limidan boshlanib, talabalarni defektolog-o'qituvchi, tarbiyachi faoliyatiga oid bo'lgan bilimlarni egallab olishga, oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarida to'g'ri qatnasha olishga, mustaqil ishlay olishga o'rgatadi. SHu boisdan "Defektologiya mutaxassisligiga kirish" kursi juda katta ahamiyatga egadir. Lekin bu kurs bo'yicha hech qanday maxsus darslikning ham, qo'llanmaning ham yo'qligi shu fanning o'qitilishida talabalar va o'qituvchilar uchun qator qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

1 bob. Pedagogika universitetida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish.

1 Maxsus pedagogikada "Defektologiya mutaxassisligiga kirish" bo'limi va uning vazifalari.

Oliy maktabning asosiy vazifalari nazariyani mukammal egallagan, o'z mutaxassisligi buyicha har tomonlama chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan, davlat siyosatini xalq ommasi o'rtasida targ'ibot qilishga layoqatli, g'oyaviy e'tikodli, ijodkor va intizomda namuna bo'la oladigan ma'naviyatli va ma'rifatli etuk kishilar tarbiyalashdan iborat. YOshlarimiz fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda murakkab uskunalar bilan ish yurita oladigan, bilimdon bo'lishlari davr talabi bo'lib qolmoqda.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, I-II kurs talabalarining ko'pchiligi oliy maktab metodlarini juda sekinlik bilan o'zlashtiradi, o'z vaqtini to'g'ri rejalashtira olmaydi, undan unumli foydalanishni bilmaydi. Ba'zan esa o'zi tanlagan kasb haqida etarli tasavvurga ega emas.

Pedagogika oliy bilimgo'lining bakalavriat yo'nalishi bo'yicha V 142300- Defektologiya o'quv rejalarida «Maxsus pedagogika» fani kiritilgan. Bu fan o'z ichiga bir nechta bo'limlarni qamrab olgan. «Mutaxassislikka kirish» bo'limi talabalarni oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maklashish, fanlarni yaxshi o'zlashtirishda yordam berish, kasb haqida to'liq tushuncha berish, unga qiziqtirish, maxsus pedagogikalardan oligofrenopedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika va logopediya fanlarini o'zlashtirishga tayyorlash maqsadida o'tilmoqda.

"Defektologiya mutaxassisligiga kirish" fani I- kurs talabalarini o'quv yurtlarining qisqacha taraqqiyoti tarixi, ularning tuzilishi va vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv dasturining mazmuni ilmiy-tekshirish ishlari, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida, talabalarning huquq va burchlari, kundalik ish tartibi va mustaqil ishlashni tashkil etish, kitob ustida ishlash kabilar bilan tanishtiradi.

Ushbu kursda materiallarning puxta o'zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozimligi, o'zlashtirishni hisobga olish, talabalarni reyting tizimi asosida sinovlarga tayyorlanish hamda ularni o'tkazishni tashkil etish, talaba turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv mehnati singari masalalarga ham alohida o'rin ajratiladi.

YAngi kishini kamol toptirmay turib, jamiyatning moddiy bazasini yaratmay turib, mustaqil davlatni takomillashtirib bo'lmaydi. Bu vazifa har birimizning zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bu ulug'vor vazifani amalga oshirish uchun yangi kishini shakl-lantirish qonuniyatlarini aniq va ravshan bilib olishimiz kerak. Ayniqsa yoshlarni o'qitish va tarbiyalash bilan bevosita shug'ullanuvchi kishilar buni chuqur bilishlari zarur. Ushbu murakkab vazifani ado etish uchun samimiylik, oddiylik, kamtarinlik, yuksak prinsipiiallik, do'stona munosabat va talabchanlik, kishilarga hurmat va ishonch, ularning taqdiri uchun qai'g'urish kabilarni o'zlashtirish, o'ziga singdirib borish har bir kishi uchun g'oyat muhimdir.

YUqorida bayon etilgan fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun farzandlarimizning yuksak insoniy fazilatlarini hayotining birinchi kunlaridanoq boshlab tarbiyalashimiz lozim.

YOshlarning umumii saviyasini oshirish ko'p jihatdan ularning bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishlariga bog'liq. SHuning uchun talabalar bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni bilishlari lozim. Talabalik yillari bo'lajak mutaxassislarning g'oyaviy fuqarolik va ma'naviy kamol topish davridir. Vatanparvarlik, jamiyatimiz ideallariga sadoqat, samimiyat, halollik va insonparvarlik - ana shu ajoyib va himmatli fazilatlar mustaqil O'zbekistonga hizmat qilayotgan ziyolilarining

ko'rkidir. Ana shu fazilatlarni tarbiyalashda ishtirok etish oliy maktabdagi har bir kishining faxrli burchidir.

Bugungi mutaxassis - bu mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish ishlarini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamoani boshkaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko'radi, o'z o'rtoqlari, kasbdoshlarining maslahatiga quloq soladi, qo'lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondashadi. Bunday kishi yukori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirkor, o'z ishining ustasidir.

2\$. Defektologiya mutaxassisligi.

O'qituvchilik mutaxassisligi to'xtovsiz o'sib bormoqda, takomil-lashmoqda va yangi mazmun bilan boyimoqda. Pedagoglik mehnati o'z maz-muni jihatidan chuqur dialektik mehnatdir. Har bir tarixiy davr o'ziga muvofiq pedagogni yaratadi. Kishi jamiyati o'z taraqqiyotida qanchalik olga qarab borsa, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat ham shunchalik ko'p ilgirilashadi. Jamiyat tuzumi qanchalik yuqorilab borsa, maktab va o'qituvchining jamiyatdagi ahamiyati ham shunchalik ortadi.

Defektologiya mutaxassislighining o'ziga xos xususiyati, spesifikasi nimadan iborat?

Defektologiya mutaxassisligi - eng murakkab, qiyin, mas'uliyatli va faxrli kasbdir.

Odamlarning mehnat faoliyati bir qancha xilma-xil turga ega bo'lib, ulardan har biri muayyan o'rinda turadi va har biri o'ziga xos vazifani bajaradi. Odamlar ishlab chikarish sohasida (ishlab chikarish faoliyati), davlatni idora qilishda (siyosiy faoliyat), yangi hodisalar va yangi qonunlarni kashf etishda (ilmiy faoliyat), kollektiv hayot sohasida (ijtimoiy faoliyat), yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishda (pedagoglik faoliyati), odamlarning sog'lig'ini muhofaza qilishda (shifokorlar faoliyati), davlatni himoya qilishda (harbiy faoliyat), ruhiy rohatbahsh etadigan narsalarni yaratishda (badiiy va musiqa sohasidagi san'at faoliyati), jamiyat tartibini saklashda (adliya faoliyati), kishilarning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilish sohasida (savdo va maishiy xizmat faoliyat), kishilarning madaniy ehtiyojlarini qondirish sohasida (madaniy muassasa xodimlarining faoliyati) va shunga o'xshashlarda mehnat qiladilar. Inson faoliyatining barcha turlari o'zaro dialektik bog'langan, bir-birini to'ldiradi va bir-biriga ta'sir etadi.

Pedagoglik faoliyati – maxsus tayyorlangan, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan; yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish va ularga ta'lim berish borasida har kuni shug'ullanadigan odamlarning alohida mehnat faoliyatidir. O'qituvchi va tarbiyachilarning kundalik va har tomonlama faoliyati mustaqil davlat quruvchi va uni ijod etuvchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchi va tarbiyachining yangi kishi tarbiyalash, unda ijobiy hislat va sifatlar tarkib toptirish vazifasi eng oliyanob, yuksak va shu bilan birga, o'z tabiati va faoliyatiga ko'ra, eng murakkab vazifadir. Defektologiya - pedagogik fan. Bu fan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida okamchiliklarga ega bo'lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadi. ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Defektologiya so'zi lotincha defekt - kamchilik, nuqson, yunoncha logos - talimot, fan, o'rganish degan so'zlardan olingan. Defektologiya fanining mavzu bahsi anomal bolalardir. Anomal bolalar – bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, maxsus yordamga muhtoj bolalar. Defektologiyaning vazifasi - anomalialarning kelib chikish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, shular asosida, differensial va integrasiyalashgan ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Bolalarni tarbiyalashda odamlarning o'ziga xos xususiyatlari nihoyatda murakkab ekanligini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi spesifik qonunlar ish kuradi.

O'qituvchi bevosita moddiy mahsulot yaratib bermaydi, balki bolalar shaxsini tarkib toptiradi. O'qituvchi-defektolog ham bolalarning sog'lom, o'sishlari va kamol topib borishlari uchun, baxtli hayot kechirishlari, mustaqil hayotda o'z o'rnini topib ketishlari uchun kerak bo'lgan hamma zaruriy tadbirlarni ko'radi.

Defektologiya mutaxassisligini faqat layoqatli va tanlangan odamlargina egallashlari mumkin. Jamiyat, xalq va hayotning o'zi defektolog kasbiga eng yuksak va murakkab talablar qo'yadi. Chunki anomal bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ulardagi kamchiliklarni iloji boricha korreksiyalash, kompensasiya etish, ya'ni tuzatish va bir analizatorning faoliyatini ikkinchi analizatorga yuklash, adaptasiya va reabilitasiya ishlarini amalga oshirish o'qituvchining mahorati, mehnatsevarligi, etiqodlari, o'z shaxsiy namunasiga, uning xulq-atvori, hissiyotlari, dunyoqarashiga va ahloqiy qiyofasiga asoslanadi. Tarbiya dialektikasi shundayki, tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. A. Avloniy, "bitta yaxshi o'qituvchi yuz va minglarcha yaxshi odamlar va bo'lajak mutaxassislardir va aksincha, bitta yomon o'qituvchi - jamiyatda o'nlar va yuzlarcha tarbiyalanmagan, xatto buzilgan odamlar demakdir." deb bejiz aytganlari yuq.

O'qituvchi-defektolog kasbining muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, bolalarni o'qitish va tarbiyalash, korreksiya va kompensasiyalash ishi ularga ta'lim berishdek yagona bir jarayonga uzviy ravishda mazmunan qo'shilib ketadi. Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xarakterga egadir. Maktabda o'quvchilarni o'qitish sifati qanchalik yuqori bo'lsa, yosh avlodga tarbiya berish vazifalari shunchalik yaxshi va samarali hal etiladi. Har bir o'qituvchi faqat o'qituvchigina bo'lib qolmay, ayni bir vaqtda u ham o'qituvchi, ham tarbiyachidir. O'qituvchining ishi ijodiy xarakterga va ijodiy yunalishga egadir.

Pedagog-defektolog kasbining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni ukituvchi bilan ukuvchi-ning bir-biriga bo'lgan murakkab o'zaro munosabatiga asoslanadi va bu munosabatning muayyan psixologik, axloqiy va ijtimoiy qonuniylari bor. Muayyan bir o'qituvchi bilan muayyan bir o'quvchi o'rtasida qanday konkret munosabat paydo bo'lishi va tarkib topishi, har bir o'qituvchi bilan bolalar jamoasining muayyan tarkibi o'rtasida qanday konkret munosabatlar tug'ilishi va o'sib borishi nihoyatda muhimdir. Bu jarayonni boshqara bilish o'qituvchi uchun muhimdir.

Defektologiya mutaxassisligi shu bilan xarakterlanadiki, u o'zining kundalik faoliyatida o'quvchilarning oilalari bilan, ota-onalar jamoatchiligi bilan hamkorlikda ish ko'radi. U hamma vaqt ham yuzlab odamlar bilan bog'langan. Bolalarni o'qitish va tarbiyalash manfaati maktab, oila va butun jamoatchilikning birgalikda ta'sir ko'rsatishini, maslahatlashib, birgalikda ishlashini talab etadi. O'qituvchi o'z ishining mantiqiga ko'ra har bir o'quvchi yashayotgan oilaviy-maishiy sharoitini yaxshi bilishi lozim bo'lganligi, yosh avlodga tarbiya berishdagi umumiy ishga ota-onalarning ijodiy kuchlarini jalb eta bilishi lozimligi uchun ham uning ishi ancha murakkabdir.

Defektologiya mutaxassisligining o'ziga xos ayrim xususiyatlari haqidagi qisqa xarakteristika ana shulardan iborat bo'lib, bularning hammasi birgalikda bu kasbning fazilati, go'zalligi va buyukligini tashkil etadi.

Defektologning ishi kishining psixikasiga, avvalo nerv sistemasi faoliyatiga yuklanadigan ishning kuchi, hajmi va xarakteri e'tibori bilan nihoyatda sermehnat ishidir. O'qituvchining aqli, hissi, kuzatuvchanligi, ta'sir ko'rsatish kuchi, muomalasi, o'zini tuta bilishi xislati, sabr-toqati juda o'sgan bo'lishi kerak. O'qituvchi nazariy bilimlarni chuqur va mustahkam egallashi kerak, ya'ni u talim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarini, o'qitadigan fanlar metodikasini, anatomiya-fiziologiya, gigiena, ijtimoiy fanlar, pedagogik, psixologik, medisina fanlarini, adabiyot, hozirgi zamon o'zbek tilini, maxsus defektologiya fanlarini, texnika, san'at, etika, estetika va boshqa fanlarni egallagan bo'lishi lozim.

Defektolog-o'qituvchi, tarbiyachi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmasdan, amaliy malaka va ko'nikmalarni ham egallashi zarur. Pedagogik, psixologik, defektologik bilimlar asosida o'quvchilarni ilmiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantira bilish, dars va mashg'ulotlar bera bilish, tarbiyaviy ishlarni, individual, gruppali va frontal mashg'ulotlarni rejalashtira bilish, o'quvchilarning kollektiv, individual faoliyatlarini tashkil eta bilish, o'quvchilarning jamoat ishlarini tashkil qila bilish, pedagogik rahbarlik, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni uyushtira bilish va ularga rahbarlik qilish, ota-onalar, jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni tashkil qila

bilish, sport, ekskursiya, kuzatishlar, amaliy ishlar va boshqa tarbiyaviy ishlarni qila bilish va olib borishdan iboratdir. Bu malaka va ko'nikmalarni talabalar sistematik ravishda o'z ustida ishlashi, maxsus fanlarni, ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'rganish yo'li bilan o'zlarining mahoratlarini oshirib boradilar.

ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida (havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoti kafolatlari). O'zbekiston 1997.
 2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997
 3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. T., 1997
 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 fevraldagi «Sog'lom avlod» dasturi to'g'risidagi 46 sonli qaroriga asosan Xalq ta'limi vazirligining 2000-2005 yillarga mo'ljallangan «Sog'lom avlod» kompleks tadbirlari dasturi. Ma'rifat gazetasi 23 fevral 2000 yil 16 son.
 5. N.Rajabov. Mutaxassislikka kirish. O'qituvchi, T., 1991
 6. A.Abduazimov, F.Abdullaeva, D.Asadullaeva, I.Tojiev, A.SHOjalilov. O'qituvchilik ixtisosligiga kirish. O'qituvchi, 1982.
 7. L.I.Ruvinskiy, V.A.Kankalik, D.M.Grishin i dr. Vvedenie v spetsialnost. Moskva, Prosveteniye, 1988.
 8. G.N.Kobernik, V.N.Sinyov. Vvedenie v spetsialnost defektologiya. Kiev, glavnoe izdatelstvo ob'edineniya vo'sshey shkolo', 1984.
 9. V.A.Lapshin, B.P.Puzanov. Osnovo' defektologii. M., 1990.
 10. T.A.Vlasova, M.S.Pevzner. Kamol topishda kamchiliklari bo'lgan bolalar haqida. T., O'qituvchi, 1976.
 11. L.R.Muminova, M.T.Jaxramonova. Logopediya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1988
 12. V.S.Raxmanova. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
 13. M.S.Zaxarina, S.X.Temurova. O'qituvchilik ixtisosligiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. Toshkent, 1980.
- universitetida ta'lim

3\$. Pedagogika universitetida talim- tarbiya jarayoni.

“O'zbekiston Respublikasidagi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda” (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi., T.1997).

Uzluksiz talim kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy, taraqqiyotni taminlovchi, shaxs, jamiyat va Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor sohadir. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari, dasturlari asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Oliy ta'lim o'pta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi xamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy talim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grant- lari negizida va pullik-shartnoma asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassislar yo'nalishi bo'yicha (fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavrlik dasturi bajarilgandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga

binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida talim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Magistr'larga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 61 oliy o'quv yurtlarida turli yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistr darajasini beradigan universitet va institutlar faoliyat kursatmoqdalar. Respublikada 18 universitet, 43 institut bo'lsa, shulardan 9 tasi pedagogik universitet 7 tasi pedagogik institut. Ulap Andijon, Angren, Buxoro, Jizzax, Jarshi, Namangan, Nukus, Guliston, Samarqand, Termiz, Toshkent, Fargona, Urganchda joylashgan.

Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti 1935 yilda O'rta Osiyo universitetining pedagogika fakulteti negizida tashkil etilgan bo'lib, shu davrdan boshlab respublikamizni pedagogik kadrlar bilan ta'minlovchi eng yirik oliy o'quv yurti bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda universitetning 12 fakul'tetida 22 yo'nalish bo'yicha yuqori saviyali o'qituvchilarni akademik lisey va kasb-hunar koledjlari uchun tayyorlab kelmoqda. Universitetda ta'lim kunduzgi va sirtqi bo'limlarda o'zbek, rus, qozoq, koreys tillarda amalga oshirilmoqda.

Oliy o'quv yurtlari o'zining tuzilishi bilan maktablardan keskin farq qiladi. Pedagogika universitetiga rahbarlikni yirik olim, profecop, fan doktori, tashkilotchilik malakasiga ega bo'lgan rektor amalga oshiradi. Rektorning yordamchilari - prorektorlar: o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha, ilmiy ishlar bo'yicha, xujalik ishlari bo'yicha. Universitetimizning eng yirik o'quv va ma'muriy bo'limi-fakul'tet. Uni dekan boshqarib boradi, raxbarlik qiladi. Dekan fakultetdagi o'quv-tarbiya ishlarini, kafedralar faoliyatini uyushtiradi, boshqaradi, stipendiyalar, ilmiy safarlar, talabalarni attestasiyalarga, nazoratlarga kiritish, kursdan kursga ko'chirish, semestrlarni yakunlash, bitiruv ishlarini himoya qilish kabi va boshqa ishlarni amalga oshiradi, ularga raxbarlik qiladi.

Har bir fakultetning ilmiy kengashi faoliyat ko'rsatadi. Unga dekan raislik qiladi. Fakultetning hayotiga oid muhim masalalar ilmiy kengashda muhokama qilinadi. Fakultet kengashi a'zolarini etakchi npofecop-o'qituvchilar hamda talabalar tashkil etadi.

Universitetdagi o'quv ishlari, ilmiy tadqiqotlar, o'quv-metodik, ma'naviy va ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni kafedralar amalga oshiradi. Kafedra umumiy fakultetlararo, fakultet qoshida bo'ladi. Kafedra mudiri rahbarligida professor, dosent, o'qituvchi, assistent, kabinet mudiri va laborantlar ma'ruza, amaliy, laborator mashg'ulotlarni, pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni, kurs ishlari, bitiruv ishlari, dissertasiyalarga rahbarlik qilish kabi va boshqa, ishlarni tashkil etadi.

Kafedra a'zolari talabalar orasida manaviy-ma'rifiy tarbiya ish-larini amalga oshiradilar, o'quv rejalari, dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlarini ishlab chiqib, nashrga tavsiya etadilar, ilmiy ishlar olib borish, aspirant va doktorantlarga raxbarlik qilish, himoyaga tavsiya etish, sinovdan o'tkazish, tavsiyalar berish; talabalarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilish ilmiy pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni targ'ib etish kabi ishlar ham kafedra tomonidan tashkil etiladi.

Fakultet dekani va dekan muvinlari (o'quv ishlar bo'yicha, ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha, sirtqi bo'lim bo'yicha) oliy o'quv yurti hayotida etakchi vazifani bajaradilar. Dekanat universitet ma'muriyati amalga oshirayotgan barcha ishlar yuzasidan fakul'tetda nazorat qilish huquqiga ega bo'lib, butun jamoaning kuch g'ayrati universitet oldida turgan ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashkiliy, xo'jalik va boshqa vazifalarni hal qilishga safarbar etadi.

Fakul'tetning har bir kursidagi talabalarning soniga qarab akademik guruhlariga bo'lishadi. Har bir akademik guruxga talabalardan biri guruh sardori (starosta) qilib dekanat tomonidan tayinlanadi. Guruh a'zolari o'zlari kasaba uyushma a'zolaridan raisni, redkollegiya a'zolari, maishiy sektor va boshqalarni saylaydilar. Talabalar guruhidagi o'quv-tarbiya ishlari, jamoa tashkilotlari faoliyatiga pedagogik rahbarlikni amalga oshirish uchun kafedra a'zolaridan etakchi tayinlanadi (kurator).

Universitet miqyosidagi barcha masalalar universitet ilmiy kengashida muhokama etiladi va tegishli qarorlar chikariladi. Universitet kengashi a'zolarini dekanlar, kafedra mudirlari, etakchi professor-o'qituvchilar tashkil etadi. Universitet rektori barcha masalalarni O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida tegishli bo'limlarda hal etadi, hisobot beradi. Demak barcha oliy o'quv yurtlari oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida.

Universitet faoliyatida kasaba uyushma qo'mitasi ham faoliyat ko'rsatadi. Har bir fakultetda kasaba uyushma tashkilotining a'zosi boshchiligida ma'lum ishlar amalga oshirib boriladi.

Barcha oliy o'quv yurtlarida va shu jumladan pedagogika oliy bilimgo'hida o'qitish ishlari o'quv yillariga taqsimlangan.

Ba'zi chet ellarda esa oliy maktabdagi o'qitish o'quv yillarga qat'iy ajratilmaydi. Talaba ma'lum kurslar buyicha ma'ruzalar tinglab, ayrim fanlardan mustaqil tayyorlanib, test topshiradi va ularning belgilangan miqdoring bajarilishi oliy ma'lumotni tugallashga olib keladi.

Oliy o'quv yurtiga talabalar qabul qilish davlatdagi xalq xo'jaliklarida kadrlarga bo'lgan ehtiyojga muvofiq davlat grantlari asosida belgilanadi. Pedagogika oliy bilimgo'higa xalq ta'limining o'qituvchi va tarbiyachilarga bo'lgan ehtiyojiga qarab talabalar qabul etiladi.

Julliyotning har bir kursidagi talabalarning soniga qarab ularni akadem-guruxlarga bo'lishadi. Har bir akademik guruhga dekanat tomonidan shu guruxda o'qiydigan talabalar orasidan sardor tayinlanadi, talabalar o'zlari kasaba uyushma a'zolaridan raisni, redkollegiya a'zolari, maishiy sektor va boshqalarni saylaydilar. Talabalar guruhidagi o'quv-tarbiya ishlari, jamoat tashkilotlari faoliyatiga pedagogik rahbarlikni amalga oshirish uchun kafedra o'qituvchi - etakchini tayinlaydi. Julliyot bo'yicha tarbiya ishlarini ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha dekan muovini va institut bo'yicha ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor boshqaradi.

4\$. Oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakllari.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalaniladi. Ta'limning asosiy shakllari ma'ruza va seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, maslahat va kollyokviumlar, kurs va bitiruv (diplom) ishlari hisoblanadi. Bundan tashqari talabalarning ilmiy jamiyati (TIJ) yo'li bilan o'qituvchilar raxbarligida, kafedra va laboratoriyalar qoshida talabalar ilmiy to'garaklarida va oliy bilimgo'hning talabalar ilmiy konferensiyalariga ma'ruzalar tayyorlash va unda ishtirok etish yo'li bilan ham chuqur bilim beriladi.

Ma'ruza - o'qitish jarayonining asosiy shaklidir. Ma'ruza o'qish yukori malakali olimlarga topshiriladi, chunki ma'ruza matnlarini tayyorlash oliy maktab o'qituvchisidan kitta mahoratni talab etadi.

Har bir mavzuga doir ma'ruza matnini tayyorlash haqiqiy ilmiy ishni eslatadi. Ma'ruza vaqtida ham, har turli amaliy mashg'ulotlarda ham, asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishini rivojlantirish, bilim va malakasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruza darsxona (auditoriya)da olib boriladigan mashg'ulotlar ichida eng ko'p qo'llaniladigan ish turi hisoblanadi. Ma'ruzaning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishini belgilashda o'qituvchi ma'ruzachi asosiy rol o'ynaydi.

Oliy maktablarda o'qiladigan ma'ruza, darslik, qo'llanmalar va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha shaxsiy ilmiy-metodik, ilmiy nazariy, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim. Haqiqiy o'qituvchi-ma'ruzachi ma'ruza vaqtinchalik topshiriq deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borishi, ma'ruzani qayta ishlab, to'ldirib va mukamallashtirishi lozim. Bunda har bir o'qituvchining o'z amaliy qarashlari, materialga shaxsiy munosabati, ilmiy umumlashtirmalari bo'lishi shart. Buning uchun adabiyotlar tanlash, ulardan o'rinli foydalana bilish, matbuotda paydo bo'layotgan yangi adabiyotlarni etarli hisobga olib borish talab etiladi.

Har bir o'qituvchi ma'ruzaga tayyorlanishda ma'lum mavzuga talluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qiladi. Bu materiallarning hammasi tartibga solinib, ma'lum reja asosida yozib chiqiladi.

Oliy maktabda ma'ruzaning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

akademik ma'ruza, ma'ruza-hikoya, ma'ruza-suhbat, ma'ruza-munozara va ommaviy ma'ruza. Bu ma'ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Buning uchun ma'ruzada reja va konspekt bo'ladi.

Auditoriyada tinglovchilarga etkaziladigan o'quv materialla-rining yo'nalishi va ularni talabalar qabul qilib olishi turlicha xarakterda bo'ladi. Bu, so'zsiz, talabalarning umumiy bilimi, o'rta maktabdagi tajribasi, ularga talim bergan o'qituvchilarning mahoratiga bog'liqdir.

Ma'ruza auditoriyada alohida fanlar bo'iicha o'tkaziladigan umumiy mashg'ulotlarning kamida 50 % ini tashkil etadi. O'qituvchi ma'ruza o'qir ekan, talabalarga mavjud materiallarni etkazish bilan birga, ularga ba'zi vazifalarni berib, kutubxona, laboratoriya, uyda ishlash uchun yullanma ham beradi.

Oliy o'quv yurtida talabalar 4 yil bakalavriatda, 2 yil magistraturada ta'lim oladilar. Ularga birinchi kursdan boshlab ma'ruza o'qiladi. Talabalar ma'ruzalarni tinglaydilar va konspektlashtirib boradilar. Har bir talaba ma'ruza mavzusini yaxshi o'zlashtirib olishi uchun quyidagicha bosqichlariga rioya qilishi lozim: ma'ruzani tinglashga tayyorgarlik ko'rish, ma'ruza tinglash, uni konspektlashtirish va yozib olingan matnни o'rganish qayta ishlab chiqish. SHu yul bilan talaba mustaqil fikrlaydigan, masalalarni to'g'ri hal eta oladigan bo'lib boradilar. Talabalar ta'lim jarayonida ko'p narsalarni o'qiydilar, ko'proq mustaqil ishlab, dasturdagi va dasturdan tashqari materiallarni o'zlashtirib oladilar. SHuning uchun xam ma'ruzada ayrim masalalarni o'rganishni talabalarning o'zlariga havola etish o'rinli bo'ladi. SHunday yo'l bilan talabalar muammoli ma'ruzalarni tinglashga tayyorlanadilar.

Ma'ruzani yozib olishda hamma o'quv qurol-asboblari, daftar, ruchka, qalam, musavvirlik va chizmachilik uchun zarur bo'lgan materiallar taxt qilib qo'yiladi. Stolda ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak. Talabadan ma'ruza davomida aytilgan fikrlar va materiallarning hammasini sabr-toqat bilan

tinglash va eslab qolishga harakat qilish talab etiladi. YUqorida aytilgan taiyorgarlik ishlari tinglovchilarga katta ruhiy-fiziologik kayfiyat baxsh etadi.

Talaba ma'ruzani tinglash va yozib borishda ma'lum ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak. Ma'ruza tinglashda talaba aktiv, mustaqil fikrlash faoliyatini boshidan kechiradi. Ma'ruzaning mohiyatini tushunish uchun ma'ruzachining har bir so'zini diqqat bilan tinglash va fikrning asosiy mohiyatiga e'tibor berish zarur. Ma'ruzachining har bir aytgan so'zini yozish shart emas. Uning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan yozib borish etarlidir. Bunda berilayotgan ta'riflar, ko'chirmalar to'liq va aniq qilib yozib olinishi shart. Ma'ruzani yozib borishda doimo diqqat-e'tibor talab etiladi, bunda imlo, tinish belgilari va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Ma'ruzani yozib borishda daftarning bir chekkasida uning to'rtidan bir qismi hajmida ochiq joy qoldiriladi. SHu ochiq joyga ma'ruza vaqtida paydo bo'lgan savollar yoki ayrim mulohazalarni yozib borish mumkin. Ma'ruzani yozib olishda so'zlarni qisqartirib yozish va shartli belgilarni ishlatish usulini qo'llash ham foydadan holi emas. Ma'ruzadagi xulosa va natijalarni esa mumkin qadar batafsilroq yozib olishga ulgurish maqsadga muvofiqdir. YOzib olingan ma'ruza matni iloji bo'lsa, usha kuniyoq yoki ertasiga, albatta, bir marta o'qib va tuzatib chiqish umum qabul qilingan talablar jumlasiga kiradi. Buni ma'ruzani qayta ishlash deb yuritiladi.

Ma'ruza talabalarni tarbiyalashning muhim usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Darsxonada o'qituvchi o'zining jonli nutqi bilan tinglovchilarga ilmiy tafakkur qilishning asl mohiyatini ochib beradi, talabalarining dunyoqarashini kengaitiradi, ularning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini va o'quv madaniyatini oshiradi. Gap fandagi ilg'or tajribalar, so'nggi yangiliklarni tinglovchiga etkaza oladigan, o'zining ilmiyligi va pishiqligi bilan uzoq vaqtgacha esda saqlanib qoladigan ma'ruzalar haqida borayapti. Ma'ruza o'qituvchilar bilan talabalarining aloqasini mustahkamlaydi. Bu jarayon seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida davom ettiriladi. Pedagogik amaliyotlari, kurs va bitiruv ishlarini baja-rishda yuqoridagi aloqalar yanada mustaxkamlanadi va mukammalashib boradi.

Talabalarga ma'ruza o'qish va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda olii maktab hayotidagi tajriba ham nazariy, ham amaliy jihatdan umumlashtirib borilmoqda. Bu umumlashtirmalarning ayrimlari quyidagicha:

1. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda hozirgi zamon fan va texnika yutuqlariga tayanib ish ko'rish.

2. Bilim, malaka va imkoniyatlarga qarab, talabalarni ijodiy fikrlovchi, bilimdon mutaxassis qilib tayyorlash.

Z. Uqitish va ilmiy ishlarni bajarish jarayonida bulajak defektolog-mutaxassislarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan shakllantirish va chiniktirib borish.4. Mutaxassislarni etishtirishda nazariyani amaliyot bilan birga qo'shib olib borish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash.

5. Bo'lajak etuk mutaxassislarda jamoatchilik, millatlararo do'stlik, hamkorlik, chuqur odamiylik kabi tuyg'ularni tarbiyalab va singdirib borish.

6. O'qitish jarayonini ko'rgazmali qurollar asosida tashkil etish va sodda tilda tushuntirib berish...yangi pedogogik texnologiyalardan keng foydalanish.

Seminarlar... o'zlashtirilayotgan yangi materiallarning bir qismi talabalar tomonidan qanday uzlashtirilishini tekshirib ko'rish maqsadida, o'tkaziladigan ta'lim formasidir. Seminar mashg'ulotlari ma'ruza usuli orqali berilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va mustahkamlash maqsadida barcha fanlar uchun tadbiq etiladi. Seminar mashg'ulotlari odatda maxsus mavzuga bag'ishlangan bo'lib, uning rejası ilgariroq e'lon qilinadi va seminar mavzusiga bog'liq adabiyotlar ko'rsatiladi. Talabalar seminar mashg'ulotlariga tayyorlanayotganlarida ko'rsatilgan adabiyotlarni olib o'qiydilar, zarur xronologik materillardagi qoida-qonunlarni atroflicha ishlab chiqib, uni bir umumiy konspekt holiga keltiradilar. Talabalarga seminar uchun tayyorgarlik ko'rganlarida ma'ruza matnini yozish tavsiya etiladi. Bu ma'ruzada talaba mavzu bo'yicha o'zining shaxsiy mulohazalarini ham aytishi kerak.

Talabalar seminar mashg'ulotlarida chiqish qilganlarida o'z yozuv-laridan foydalanishlari mumkin. Seminar mashg'ulotlarini aniq savollar yordamida o'tkazish o'rganilayotgan fanni ma'lum izchillikda o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqa o'qitish jarayoni shakllarida bo'lgani kabi seminar mashg'ulotlarida

ham asosiy e'tiborni belgilangan mavzularni talabalarning to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashga qaratish bilan birga talabalarni mashg'ulot vaqtida tarbiyalab borishga ham alohida ahamiyat berish zarur..

Seminar yuzasidan savol-javoblar qilingach, o'qituvchi barcha so'zga chiqqan talabalarning mulohazalari va ma'ruzachining savollariga bergan javoblari bo'yicha o'zining fikrini aytib, seminarga yakun yasaydi. Agar seminar mavzusiga doir barcha materiallar to'la qamrab olinmagan bo'lsa, u holda uni maruzachiga qayta ishlash tavsiya etiladi. SHundan so'ng o'qituvchi navbatdagi seminar mavzusini e'lon qilib, talabalarga ushbu mavzu bo'yicha ham tayyorgarlik ko'rib kelishlarini tayinlaydi.

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari ma'ruza kursida olingan bilimlarni amalda tadbiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shakllaridan biridir. Bu ikki mashg'ulot o'zining xususiyatiga ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy va tajriba darslarida talabalar ikki guruhga bo'linadilar. Har bir kichik guruhga alohida o'qituvchi rahbarlik qiladi. Amaliy mashg'ulotlar asosan ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya va maxsus fanlar, tajriba mashg'ulotlari esa medisina, maxsus metodika fanlarini o'rganishda qo'llaniladi. Amaliy mashg'ulot bir guruh -25 talaba bilan o'tkazilsa, tajriba (laborator.) mashg'ulotda gruppaning yarmi, 12-13 talaba bilan o'tkaziladi. Amaliy va tajriba mag'ulotlari nazariy kursdan 8-10 soatlar o'tkazilgandan keyin boshlanadi.

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari ma'ruzada berilgan, mustaqil ishlar orqali olingan nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash, malaka va ko'nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi. Nazariy o'rganilgan bilimni amalda tatbiq etish yo'li bilan uni mustahkamlaydi, kasbni egallashga yul ochadi. Bu ishlar tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, kuzatish, sinab ko'rish yo'li bilan masalaga oid faktlar to'plash, ular yuzasidan nazariy xulosalar chiqarish va umumlashtirishga o'rgatadi.

Amaliy yoki tajriba mashg'ulotida talabalar o'qituvchi topshirig'iga ko'ra bajariladigan ish mazmuniga qarab, kerakli adabiyotlar, dastur va darsliklarni o'rganib, bajariladigan amaliy ishning rejasi bilan tanishib, adabiyotlarda ko'rsatilgan qoidalarga amal qilgan holda mustaqil ishlay boshlaydilar. Agar ish jarayonida qiyinchiliklarga yoki tushunmovchiliklarga duch kelinsa, o'qituvchiga murojaat qilish lozim.

Seminar, amaliy va tajriba mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi barcha talabalarning o'rganilayotgan fan yuzasidan mustaqil ishlari va tayyorgarliklarining sifatini butun gruppaga nisbatan bir tekisda aniqlashi juda qiyin. SHuning uchun oliy maktabda joriy, oraliq, nazorat, kollektivumlar, konsultasiyalar, yozma nazorat ishlari kabi ish shakllari ham qo'llanadi.

Kollektivumlar o'qitish jarayonida qo'llaniladigan dars formalaridan biri bo'lib, fanlarni to'laroq o'zlashtirishda qulailik tug'diradi. Kollektivumda fanning bir bo'limi o'tib bo'lingach, shu bo'limni talabalar qanday o'zlashtirganliklari sinab ko'riladi. Unda o'qituvchi talabalarga vazifa beradi. Talabalar savollarga birin-ketin javob beradilar. Javoblar o'qituvchi tomonidan yakunlanib, umumlashtiriladi va aktiv ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi, joriy yoki oraliq nazorat ballari qo'yiladi.

Konsultasiya (maslaxatlar) oliy pedagogika o'quv yurtida keng qo'llaniladigan ish shakli bo'lib, ko'pincha ma'lum kurs materiallari o'tib bo'lingach, undan o'tkaziladigan oraliq, yakuniy nazoratdan oldin yoki o'zlashtirmovchi va boshqa talabalar bilan yakka holda yo gruppaga bo'lib o'tkaziladi. Konsultasiya mustaqil ishlovchi talabalar uchun xam belgilanadi. Bulardan farqli o'laroq kurs, bitiruv ishi, ilmiy tadqiqot jarayonida talabalarga sistemali maslahatlar beriladi.

Konsultasiya turli shaklda o'tkazilishi mumkin: talabalar savol beradilar, o'qituvchi esa savollarga javob qaytaradi yoki u suhbat tariqasida o'tishi mumkin.

Kurs ishlari defektologiya yo'nalishining III va IV kursida maxsus pedagogika, psixologiya, maxsus metodikalardan bajariladi. Kurs ishlari talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlaridan biri bo'lib, ularni ilmiy izlanishlar, eksperimental ishlarni olib borish malakasini xosil qilishga, ma'lum ilmiy xarakterga ega bo'lgan maruzalar, referatlar yozishga chorlaydi. Odatda kvpc ishlari yozishda ukituvchi xabarligida mavzu tanlab olinadi va mavzuga doir reja tuziladi, rejaga asosan kurs ishi yozilib, taqriz qilinadi va o'qituvchiga topshiriladi. Kurs ishini bajarish jarayonida o'qituvchi-rahbardan muntazam ravishda maslahatlar olib turiladi. Uning hajmi 24 bet bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kvpc ishlarining nazorat ishlaridan farqi shundaki, kurs ishlarida talabalar aniq mavzu bo'yicha mustaqil ravishda tegishli adabiyotlarni o'qib chiqib, mustaqil fikr yuritadi, eksperiment, kuzatishlar, ilmiy izlanishlar, ma'lum

muammolarni echib berishga o'zining hissasini qo'shadi. Nazorat ishlarida esa oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarga javoblar qaytariladi. Ularning hajmi kurs ishlarining hajmiga nisbatan kichik bo'lib, o'zaro bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Bo'lg'usi defektolog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimida pedagogik amaliyot muhim o'rin egallaydi. U pedagogika oliy bilimgo'idagi o'quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo'lib hisoblanadi va talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatning dastlabki tajribasi bilan qurollantiradi. Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchi-defektologni pedagogik jarayon metodologiyasi, ta'lim-tarbiya ishining prinsiplari, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirishi lozim. Amaliyot davrida talabalar oldiga pedagogik malakani egallash maqsadi qo'yiladi. Bu, talabalar pedagogik amaliyot natijalarini baholash uchun mezon bo'lmog'i kerak. Pedagogik amaliyot ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik, maxsus defektologik bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish, takomillashtirishga, kasb mahorati, ko'nikmalarini, shaxsning professional jixatdan muxim sifatlarini egallashga yordam beradi. Turli tipdagi maxsus maktab va maktab-internatlari, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari pedagogik amaliyotni o'tkazish uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyot bir necha bosqichlar bo'yicha olib boriladi. I-II kurslarda barcha qulliyotlar uchun umumiy bo'lgan umumpedagogik tayyorgarlik amalga oshiriladi, keyin III kursdan boshlab bo'lajak defektologlar maxsus fanlar bo'yicha nazariy bilimlar olib borganlari sari ularning ixtisosi hisobga olinib, amaliyot tabaqalashtiriladi. YOzgi kanikul davrida III kurs talabalari shahar va shahardan tashqari lagerlarda, bolalarning sog'lomlashtirish maydonchalarida mahallalardagi bolalar klublarida tarbiyachi bo'lib mustaqil ishlaydilar. III - IV kurslarda o'quv-tarbiya amaliyoti tashkil etiladi. Talabalar maxsus maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida, boshlang'ich sinfda va yuqori sinflarda mustaqil ravishda darslar olib boradilar.

Talabalarning pedagogik amaliyotiga oliy maktabning malakali mutaxassisleri va maktabning mamuriyati rahbarlik qiladi. Pedagogik amaliyot boshlanishdan oldin talabalarga shu amaliyotning maqsadi va vazifalari tushuntiriladi, pedagogik amaliyot dasturi bilan tanishtirilib, konkret vazifalar belgilanadi. Pedagogik amaliyot eng ilg'or maktablarda, maktabdan tashqari muassasalarda o'tadi.

Pedagogika oliy bilimgo'ida o'quv tadqiqot ishlar jumlasiga bitiruv ishlari ham kiritiladi. Bitiruv ishlari barchadan yaxshi o'zlashtirishni va ilmiy izlanish ishlari olib borishni talab etadi. Bitiruv ishi talabaning mustaqil ilmiy ishidir. Ba'zi bitiruv ishlarining natijasi nashr etiladi va amaliyotda qo'llaniladi. Agar bitiruv ishi mutaxassislik bo'yicha dolzarb muammo bo'yicha bo'lsa, u magistrlik dissertasiyasi uchun asos bo'lishi mumkin. Bitiruv ishi o'qituvchi rahbarligida yoziladi. Bitiruv ishlarining hajmi 50 bet. Ish tamom bo'lgach, bitiruv ishiga mutaxassis tomonidan taqriz yoziladi va muhokamaga qo'iiladi. Davlat attestasiya komissiyasi a'zolari oldida bitiruvchi talaba qilgan tadvikoti haqida axborot beradi, so'ngra muhokama hamda munozara qilinadi, talaba o'z ishlarini himoya etadi va ish baholanadi.

Talabalar tomonidan bajariladigan bitiruv ishlari haqiqiy ilmiy ishlarning boshlanishidir. Bitiruv ishi talabaga ilmiy izla-nish, ma'lum muammolarni o'rganish va uning mohiyatini tahlil qi-lishda yordam beradi. Zotan, talabalar o'qish jarayonida 3-4 yil ichida ma'lum doirada ilmiy-tekshirish ishlari olib borgan bo'ladilar. Talabalarning ilmiy ishlari talabalar ilmiy jamiyatlari anjumanida tinglanadi, muhokama qilinadi, baholanadi. Bu jarayon talabaning ilmiy qobiliyatini charxlab beradi.

Bitiruvchi talabalar davlat attestasiyasidan o'tadilar. Bitiruv ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan talaba davlat attestasiyasiga kiritiladi. Bitiruv ishi hismoyasi va davlat attestasiyasiga o'quv rejani to'liq bajargan, ya'ni o'quv yillari davomida o'quv dasturlarida ko'rsatilgan barcha predmetlardan yuqori balli barcha talabalar qo'yiladi. Davlat attestasiyasidan o'tish uchun bakalavriat yo'nalishi : V 142300 – Defektologiya bo'yicha talabalar maxsus pedagogika, maxsus psixologiya va maxsus metodikalardan nazorat yozma ishlarini bajaradilar. Davlat attestasiyasini davlat komissiyasi o'tkazadi. Davlat attestasiya komissiyasiga rektor, dekan yoki dekan muovini, kafedra mudirlari, professor va dosentlar kiradi. Davlat attestasiya komissiyasining raisi shu universitetda ishlamaydigan mutaxassis bo'lishi kerak. Davlat attestasiya komissiyasining raisi

quliyot va oliy bilimgoth kengashlarida hisobot va kelgusida nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida maslahatlar tavsiyalar beradi.

5\$. Oliy o'quv yurtlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'grisida.

Oliy o'quv yurtida talaba bilimi reyting tizimi asosida baholanadi. Reyting tizimini joriy etishdan maqsad O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish va respublikada raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlari bo'yicha halqaro andozalarga o'tishdir. Reyting tizimida baholash – talabaning o'kish davomida o'z bilimini muntazam oshirish va ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga qaratilgan. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan Nizomga ko'ra reyting tizimida quyidagi vazifalar bajariladi:

- talaba bilimini ko'rsatkichlarini haqqoniy, aniq va adolatli baholash;
- talabaning o'zlashtirishini doimiy nazoratga olish va sesmestr davomida faol ravishda ishlashni jonlantirish;
- talabada bilim olishga, professor-o'qituvchida esa o'qitishga mas'uliyatni oshirish;
- talabada mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- davlat ta'lim standarti, o'quv reja asosida fan dasturlari va turli mashg'ulotlarga oid uslubiyotni takomillashtirish;
- kompyuterlashtirilgan testlardan keng foydalanish.

Har bir fan bo'yicha maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan soatlari miqdoriga teng.

O'quv rejasiga kiritilgan har bir fanni talaba tomonidan o'zlashtirish ko'rsatkichi (% hisobida)... yig'gan reytingini (bali) doimiy nazorati reyting tizimining asosini tashkil etadi. Bir semestrda o'tilgan fan yoki uning qismi talaba tomonidan o'zlashtirilishi (%) foizlarda hisoblanadi. Semestr(o'quv yili) davomida o'qitilgan barcha fanlardan to'plangan ballar yig'indisi talabaning shu semestr (kurs) dagi reytingini tashkil qiladi. Talaba bilimini baholashda dastavval o'zlashtirish ko'rsatkichi (%) aniqlanadi, so'ngra dars soatlari hajmiga muvofiq fan bo'yicha talabaning reytingi hisoblab topiladi.

Nazorat turlari va shakllari

Har bir fan bo'yicha talabaning o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar orqali amalga oshiriladi. JN - joriy nazorat o'tilayotgan amaliy (seminar) yoki tajriba (laboratoriya) mashg'ulotlarini talaba tomonidan qanday o'zlashtirilayotganini muntazam ravishda mashg'ulot mobaynida baholashni nazarda tutadi. Bunday nazorat reyting kartasida ko'rsatilgan tartibda o'tkazilib, talabaning o'lashtirish darajasini fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab, baholab borishni ko'zda tutadi.

ON - oraliq nazorat fan bo'yicha o'tilgan nazariy mashg'ulotlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlashga qaratilgan. Bundan maqsad talabaning o'tilgan mavzular bo'yicha nazoriy bilimlarini aniqlash, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olishga o'rgatish. Oraliq nazoratda talabalar bilimi test shaklida, savol-javob, yozma nazorat ishi kabi va boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar natijasida erishish mumkin bo'lgan maksimal reyting ballari fanga ajratilgan mashg'ulot soatlari 100 % miqdoriga teng. SHulardan 40 %- joriy nazorat, 30 % - oraliq nazorat va 30 % - yakuniy nazoratga ajratiladi.

YAkuniy nazorat-30 % miqdorida fanning bir semestrda o'tilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlardagi mavzular bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun o'tkaziladi. YAkuniy nazorat asosan yozma ravishda amalga oshiriladi.

Reyting ballarining maksimal miqdori o'quv rejada ko'rsatilgan soatlarning 100 % tashkil etsa, saralash bali 55 %dan kam bo'lmasligi lozim.

O'quv rejasida bir necha semestr davomida o'qitilishi belgilangan fan bo'yicha talabaning umumiy reyting bali har bir semestrda shu fandan to'plangan reyting ballari yig'indisiga teng bo'ladi.

Baholash turlari har bir fanning xususiyatlariga qarab mashg'ulotlar jarayonida so'rov o'tkazish, test savollariga javob berish, yozma nazorat ishlarini bajarish kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bulardan tashqari boshqa turdagi nazorat shakllarini ham qo'llash mumkin.

Fan bo'yicha talabaning nazariy (ON), amaliy, tajriba-laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari va x.k.(JN)dan o'zlashtirish ko'rsatkichlari va yig'ilgan reyting ballarini kafedra va dekanatda o'rnatilgan tartib va belgilangan muddatlarda (tasdiqlangan jadval asosida) nazorat etiladi. (qaydnomalarda joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarning barcha natijalari ko'rsatilishi shart). Ushbu nazoratlarning jamlangan natijalari universitetning o'quv bo'limida operativ ishlovdan o'tkaziladi va tahlil qilinadi.

Fan bo'yicha semestr davomida maksimal ballning kamida 55 % to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Agar semestr davomida talaba to'plagan ball 35 foizdan kam bo'lsa, u qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb xisoblanadi.

Semestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan ballning 86-100% "a'lo", 71-85 % "yaxshi", 56-70% "qoniqarli, 55 % dan kam "qoniqarsiz" o'zlashtirish ko'rsatkichlarini chegaralaydi.

Talabaning barcha turdagi amaliyotlarda olgan kunikmalari, kurs ishi, bitiruv mutaxassislik ishi, davlat attestatsiyasi nati-jalari, o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baxolanadi va reyting daftarchasida alohida qaid etiladi.

Ajratilgan reyting ballari doirasida 10% gacha ballar talabaning mashg'ulotlardagi faolligi, mustaqil ishlarni bajarishda ijodiy yondasha olishligi, ta'lim-tarbiya intizomiga amal qilish sifatlari ham hisobga olinadi.

Semestr davomida fan uchun belgilangan maksimal reyting balining 55 foizidan kamini to'plagan talaba o'rnatilgan tartibda rektorning buyrug'i bilan oliy o'quv yurtidan chetlashtiriladi.

Biror sabab bilan nazorat sinovlarida qatnasha olmagai talabalarga 1-2 hafta ichida qayta baholanishdan o'tishga ruxsat beriladi.

Talabani kursdan kursga o'tqazish, stipendiya bilan ta'minlash ishlari o'quv yili oxirida o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlardan to'plagan reyting ballari inobatga olingan holda, rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Talabalarning har bir fandan semestr mobaynida nazorat turlari bo'yicha olgan reyting ballari tasdiqlangan shakldagi qaydnoma varaqasida o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda qaid qilib boriladi, har bir fandan semestr mobaynida tuplangan umumiy bali talabaning "Reyting daftarchasida" qayd qilinadi.

Talaba fan uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizidan kamini to'plagan taqdirda shu fan bo'yicha reyting natijalari uning "Reyting daftarchasida" qayd etilmaydi.

Talabalar reytingi muntazam ravishda reyting nazorati jadvallarida (ekranlarida) yoritib boriladi va tahlil qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba reytingi kursdan kursga o'tkazishda, stipendiya turini tayinlashda, bakalavr diplomini taqdim etishda, magistraturaga tavsiya berishda qo'llaniladi.

6\$. Talabalarning huquqi va burchlari

Talabalarning pedagogika oliy o'quv yurtida muvaffaqiyatli o'qish, oliy bilimgo'h, fakultet ijtimoiy hayotida faol qatnashishlari uchun o'z huquqlari va burchlarini aniq bilishlari hamda tushunishlari zarur.

Talabaning huquqi va burchlari davlatimizning konstitusiyasi asosida, "Ta'lim to'g'risida" gi Jonun,"Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari"dan kelib chikib, har bir oliy o'quv yurtining Ustavi va Nizomida belgilab berilgandir. Ustav, ya'ni ish tartibi, uning bajarilishi, tatbiq qilinishi va tashkil etilishini belgilovchi qonun-qoidalar majmuy, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va kuchga kiradi.

Talaba oliy o'quv yurtiga qadam qo'yar ekan, ongli harakat qilmog'i lozim. Uning bunday ongli harakati oliy bilimgo'hda o'rnatilgan va joriy etilgan ichki tartib-qoidalarni bajarishda ko'rinadi.

Oliy o'quv yurtining auditoriya, laboratoriya, kabinetlari, qiroatxonasi, kutubxonasi, sport zali, inventar va boshqa o'qishga yordam beruvchi muassasalardan bepul foydalanish; oliy o'quv yurtida va talabalar ilmiy jamiyatlarida olib boriladigan ilmiy-tekshirish ishlarida qatnashish; ijtimoiy tashkilotdar ishida qatnashib, o'quv jarayonini, tarbiyaviy ishlarni mukammallashtirish, shuningdek talabalarning o'zlashtirishi, mehnat va o'quv intizomi masalalari, stipendiya taqsimlash, yotoqxona o'rinlarini taqsimlash va boshqa talabalarning o'qishi va turmushi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish; talabalar oliy o'quv yurti jamoasining ijtimoiy hayotida ishtirok etadilar, sport seksiyalari, ilmiy va boshqa to'garaklarda, badiiy havaskorlik to'garaklarida qatnashadilar; ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy o'quv yurtida o'qiyotgan talabalarga ularning o'zlashtirishi va ijtimoiy ishlarda ishtirok etishini hisobga olib stipendiya belgilanadi; uzoq erdan kelib o'quvchi muxtoj

talabalarga yotoqxonalar beriladi; oliy o'quv yurtlarini tugatganlaridan so'ng talabalar o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishga yuboriladilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, talabalar juda keng huquqlarga egadirlar. Bularning hammasi talabalarining chuqur va atroflicha bilim olishi, zamon talab etgan darajadagi mutaxassis bo'lib etishishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Har bir talaba davlat qonunchiligi ta'minlaydigan huquqlardan tashqari oliy o'quv yurtining talabasi bo'lish bilan ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga anchagina burch, majburiyatlarni ham oladi.

Oliy o'quv yurtining talabasi tanlab olingan mutaxassislik bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni izchillik bilan chuqur egallab borishi; o'zining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va madaniy saviyasini oshirib borishi; tarbiyaviy ishlarni tashkil etish ko'nikmasini egallashi; o'quv mashg'ulotlariga qatnashish va belgilangan muddatda o'quv reja va dasturida ko'rsatilgan hamma topshiriqlarni bajarish; ijtimoiy-foydali mehnatda faol qatnashish; oliy o'quv yurtining ichki tartib va qoidalarini bajarish; doimo darsga qatnashish, universitet mulkini, auditoriya, kabinetlarini ozoda saqlab, yaxshi tutish va boshqalarni bajarishi zarur.

Albatta talabalarining burchlari faqat yuqorida ko'rsatilganlar bilan chegaralanmaydi.

Talabalarni huquq va burchlari bilan oliy bilimgo'ha kirgan dastlabki kunlarida dekan; gruppalar etakchisi tanishtiriladi.

Talaba oliy o'quv yurtining ijtimoiy hayotida: turli tadbirlarda kechalarda, to'garaklarda, ijtimoiy-foydali mehnatda faol ishtirok etmog'i kerak. Bu uning ma'naviyatini, o'z kasbiga bo'lgan munosabatini isbotlaydi. Talaba universitetga qatnay boshlagan dastlabki kunidanoq yuqorida ko'rsatilgan ishlardan o'ziga mosini, o'zini qiziqtirgan turlarini topishi va shu sohada faollik kursatishi lozim. Bu borada talabalarga kuratorlar, dekanat, o'qituvchilar katta yordam beradi.

Oliy maktab hayoti va undagi talaba hayoti haqida gapirar ekanmiz, universitet guruh - talaba tushunchalari o'rtasidagi birlik va munosabat darajasini e'tiborga olishimiz kerak. Ana shu uch tushunchaning umumiy bog'lanishida, talabalar guruhining haqiqiy kollektivga aylanishida va uning tarbiyaviy kuchga ega bo'lishida guruh etakchisining roli katta. Etakchining vazifasi guruhdagi talabalar hayotini tashkil etishga yordamlashishdir. Buning uchun: talabalarga kollektiv bo'lib uyushib olishga, o'z bilimini, fikr doirasini, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqil ishlarni tashkil etishga, izchillik bilan aqliy faoliyat bilan shug'ullanishga, madaniy darajani o'stirishga, ixtisos tayyorgarligini takomillashtirishga rahbarlik qiladi va guruhdagi jamoat tashkilotlarining bu sohadagi faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashadi.

Talabalar guruhini mustahkam jamoaga aylantirish juda zarur. Jipslashgan jamoadagilar bir birini yaxshi tushunadi, bir birini qo'llab-quvvatlaydilar, darsdan tashqari vaqtlarda birgalikda ko'ngilli dam oladilar. Bularning hammasi guruhni faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Talabalar guruhi bilan ishlashda o'z-o'zini boshqarishni o'rgatishda sardor, kasaba uyushmasi rahbarining ahamiyati katta. Sardorlar quyidagi funksiyalarni bajaradilar: talabalarining mashg'ulotlarga qatnashishini hisobga olish, guruhdagi tartib-intizomni boshqarish, dekanatga guruh haqidagi tegishli malumotlarni etkazish, talabalar tomonidan darslik va qo'llanmalarining o'z vaqtida olinishini tashkil etish, har kuni navbatchi tayinlash va boshqalar.

Talabalarining kasaba-uyushma tashkiloti ularning madaniy hayoti... dam olishi va maishiy turmushi bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi. Guruh kasaba-uyushma tashkiloti universitet talabalarining kasaba-uyushma tashkiloti bilan aloqada bo'lib, guruh talabalariga yaqindan yordam beradi. Guruh kasaba uyushma raisi kasal o'rtoqlariga g'amxurlik qilib, ularni profilaktoriy, sanatoriylarga, dam olish uylariga yo'llanmalar bilan ta'minlaydi, ahvoli qiyinlarga moddiy yordam uyushtiradi.

Kasaba uyushma tashkiloti talabalarining dam olish kechalari, diskotekalar uyushtirishga, badiiy xavaskorlik ko'riklariga alohida e'tibor beradi va bu ishlarni tashkil etadi.

Talabalik yillar "oltin" davr deb yuritiladi. Bu ko'p ji-hatdan guruhdagi hayotning qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq. Talabalik yillarining sermazmun, qiziqarli, foydali bo'lib o'tishi gurux a'zolari qo'lida. Guruxda munosabatlar ahvoli yaxshi bo'lishi va unda sog'lom jamoatchi fikrining hukm surishi kerak.

7\$. Aqliy mehnat gigienasi va madaniyati.

Kishining aql yoki kuch bilan amalga oshadigan maqsadli harakati - mehnatdir. Demak mehnat aqliy yoki jismoniy bo'lishi mumkin. Aql - odamning fikr yuritish, bilish faoliyati. Aqliy mehnat - kishi uchun eng og'ir mehnatdir. Bu mehnat aqliy zor berishni talab qiladi, uzoq vaqt davom etadi va qunt bilan shug'ullanishni talab qiladi. Aqliy mehnatning murakkabligi yana shundaki, undagi natijalarning namoyon bo'lishi qiyinroq bo'ladi, ularga qisqa vaqt ichida yoki birdaniga erishib bo'lmaydi. Aqliy mehnati jarayonida umuman mehnat faoliyatiga to'g'ri munosabat tarbiyalanadi, talabalarning ongi zamonaviy ishlab chiqarish va iqtisos asoslari bilan boyib boradi.

Oliy bilimgohta o'quv mehnati jarayonida talabalar turli darajada murakkablikka ega bo'lgan va mustaqillikni turli darajada talab qiladigan aqliy hamda amaliy harakatlarni egallaydilar. Bu esa ularda bilimga qiziqishni, aqliy faoliyatning samarali usullarini shakllantiradi. O'quv mehnati jarayonida aqliy mehnat madaniyati hosil qilinadi, o'rtoqlik, hayrihohlik, inti-zomlilik, uyushqoqlik singari fazilatlar tarbiyalanadi.

Har bir sohada bo'lgani singari aqliy mehnat borasida ham ishni ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish, uning madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyatga egadir. Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish esa har bir kishining o'z kun tartibini (mehnat qilish, dam olish, ovqatlanish kabi) qanday uyushtira olishiga, o'z ish va grafigini qat'iy bajarishga, mavjud axborotlar va yangi adabiyotlardan ish jarayonida tahsil ko'rishda, ilmiy-tadqiqot faoliyatidan unumli va o'rinli foydalana olishga bog'liqdir.

Aqliy mehnatning o'ziga xos tomonlari mavjud. O'z mustaqil ishingizni tashkil etar ekansiz, siz aqliy mehnatning o'ziga xos tomonlarini bilishingiz va uni hisobga olishingiz, aqliy mehnat gigienasiga to'la rioya qilishingiz zarur. Ishni har doim aniq belgilangan joyda boshlash va davom ettirish tavsiya etiladi. Eng ma'quli kutubxona, xona va tajribaxonalarda ishlashdir. Bu ishning unumdorligiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bundai joylarda mehnat unumi yaxshi bo'ladi, tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Bu esa o'z navbatida kishida ishlash kayfiyatining uyg'onishiga va oshishiga olib keladi. Uyda shug'ullangan vaqtingizda esa boshqa ishlar bajarilmaydigan, faqat o'z o'quv mashg'ulotlaringiz uchun ajratilgan muayyan joyni tanlab olishga harakat qiling. Bunday qoidani ahamiyatsiz deb hisoblamang, chunki shunday sharoit muhayyo bo'lsa, sizda odat hosil bo'lgach, ishni dangal boshlab yuborishga hohish paydo qilish uchun otdagi ish joyingizga o'tirish kifoya. Ish joyga o'tirgach, fikrni faqat bir nuqtaga yo'naltirish kerak.

Mehnat gigienasi ish joyini to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. CHiroq yoki quyosh nuri chap tomondan tushib turishi kerak. Stol ustida ish maydonchasining yoritilish darajasi 100 lyuks, lampochka, abajurli 60 vatt bo'lishi lozim. Kerakli kitob, qog'oz, ruchka va boshqa o'quv qurollari aniq belgilangan joyda turishi kerak.

YUqoridagi tavsiyalarga amal qilish o'z navbatida mehnat sharoitining yaxshilanishiga, ish unumining samarali bo'lishiga, o'zlashtirish darajasining oshishiga olib keladi. SHu sababli o'quv mehnatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faktorlardan uzoqroq bo'lgan ma'qul. Bundai salbiy faktorlarning yuz berishiga yo'l qo'ymaslik uchun ilm-fan o'zlashtiriladigan, mustaqil mulohaza yuritiladigan o'quv zallari, kabinetlar, laboratoriya kabilarda gaplashib o'tirishga, transport shovqini singarilarga barham berish kerak. Sermahsul ishlash va o'zlashtirilgan materiallarni uzoq xotirada saqlab qolish uchun shovqin-suronsiz va tinch joy tanlash maqsadga muvofiqdir.

Aqliy mehnat sifati ko'p jihatdan xotiraga ham bog'liq. Materialni yaxshi eslab qolish uchun uni tarqoq, parchalab emas, balki malum sistema bo'yicha, muayyan mantiqiy izchillik asosida o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir.

AQLIY mehnatning hamma soatlari bir xil unumli bo'lmaydi. Mutaxassislarning bergan malumotlariga ko'ra ish kunining uchinchi va to'rtinchi soatlari eng sermahsul va samaralidir. O'qish jarayonida esa ikkinchi va uchinchi juft soatlar eng serunum hisoblanadi.

To'g'ri o'tirib ishlash kerak. YOnboshlab yoki yotib o'qish zararli, chunki organizm bo'shashadi, ko'z charchaydi, oqibatda o'zlashtirish ham ko'ngildagidek bo'lmaydi. Surunkasiga o'tirish ham zararli, chunki bo'yin va belga yuk tushadi, asab markazlari charchaydi. YUrak

muskullari va miyaga qon kelishi kamayadi, yurakda og'riq sezila boshlaydi, bosh og'rig'i paydo bo'ladi. Charchashning oldini olishda gavda holatini o'zgartirib turishning ahamiyati juda katta. Stolga faqat kaft bilan suyanilsa, yozish ancha engil bo'ladi, qo'l charchamaydi.

Mashg'ulot paytida har xil fanlarni almashtirib o'qing. Har bir soatdan so'ng tanaffus qiling. Tanaffus vaqtida boshqa ish bilan mashg'ul bo'lish kerak.

Materialni chuqur o'zlashtirish va uzoq esda saqlab qolish uchun vazifalarni topshirish arafasida emas, balki usha vazifa topshirilgan kundan boshlab tayyorlab borish lozim. Talaba har kuni kechqurun kamida ikki soat ishlashi lozim.

Faol dam olish ham aqliy mehnat samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun dam olish kunlarini sport mashg'ulotlari, sayr, o'yinlar, teatr, kinolarga borish, kuvnoq va qiziqarli dam olish bilan o'tkazish kerak. Ayniqsa sport bilan shug'ullanish mashg'ulotning samarali bo'lishiga yordam beradi.

Aqliy mehnatning samaradorligini oshirish uchun har qanday ishga xotirjamlik bilan, shoshmasdan, bamaylixtir kirishing, muayyan mehnat maromini saqlang, har bir ishni muntazam, o'z navbati bilan bajaring.

Har qanday holatda ham ovqatlanishni unutmang.

Oliy o'quv yurtida o'quv kurslari bilimlarni qat'iy izchillik bilan o'zlashtirishga mo'ljallangan. SHuning uchun fan asoslarini puxta egallamasdan turib, murakkab masalalarni o'rganish mumkin emas. O'zingizni har kuni aqliy mehnat qilishga o'rgating.

Xullas, oliy maktabda muvaffaqiyatli o'qish, mazmunli, maroqli, mukammal hayot kechirish uchun quyidagilarni bajarish lozim:

1. Kundalik reja, uyqu, ovqatlanish, mehnat rejimi, ortiqcha charchashga yo'l qo'ymaslik bilan birga, bo'shashib qolish, ishning og'irligi va hilma-hilligidan dovdirab, ruhiy tushkunlikka ham berilmaslik lozim.

2. Ishni reja bilan olib borish. Vazifalar qanchalik murakkab bo'lsa, vaqtni shunchalik qat'iy rejalashtirish lozim. Rejani amalga oshirishda aniqlik va puxtalikka rioya qilish darkor.

3. Aqliy mehnat gigienasiga rioya qilish zarur.

4. Sport bilan shug'ullanish orqali organizmni chiniqtirish va sog'liqni mustahkamlash.

II bob DEFECTOLOGIYA FANINING UMUMIY ASOSLARI.

1 §. DEFECTOLOGIYA FANI VA UNING

VAZIFALARI

Xar qanday jamiyat uz farzandlarini xar tomonlama etuk, komil inson bo'lib voyaga etishni, munosib fo'karolar bo'lib, davlat tarrafiyotiga, gullab yashnashiga o'z ulushlarini qo'shishlariga xarakat qiladi umid bog'laydilar.

Afsuski, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bolalar hali ham huquqlaridan mahrum etilganlar, ya'ni ularning sog' salomat hamma qatori to'laqonli rivojlanishlari va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun kerakli imkoniyatlar yaratilmagan. Bolalarning ish soatlari ba'zi hollarda nihoyatda uzoq bo'lganligi sababli sog'ligi yomonlashmoqda, ular o'qish, dam olish imkoniyatlaridan mahrum. Bolalar ko'chalarda alkogol, giyohvand moddalar, seksual zo'ravonliklar havfiga duch kelmoqdalar.

Maktabga qabul qilingan ayrim bolalar uni to'liq bitira olmayaptilar, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uyda o'tiribdi ta'lim olishdan mahrum, ayrimlarining ta'lim oishi chegaralangan.

Kasallikni oldini olish mumkin bo'lgan joylarda hali ham juda ko'p bolalar xastaliklardan nobud bo'lmoqdalar, to'yib ovqat eyish, toza ichimlik suvidan bahramand bo'lish ko'p mamlakatlarda hali ham to'liq tashkil etilmagan.

Bundan tashqari, jahonning ba'zi bir qit'alarida maktab yoshidagi bolalar ham qurolli kuchlar safiga chaqirilmogda, ular zo'ravonliklarga, qiynoqlarga duchor bo'lmoqdalar, jismoniy jazolanmogda, kerak bo'lsa, ozodlikdan, kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilinmoqdalar.

Asosiy ehtiyojlari va huquqlari qo'pol buzilgan bolar hech qachon boshqalarning huquqlarini hurmat qila olmaydilar hamda odil va g'amho'r bo'la omaydilar. Huquqning buzilishi faqat shaxsning azob-uqubatlanishini yuzaga keltirishiga sabab bo'libgina qolmay, balki ularning ongida siyosiy barqarorlik urug'larini ekilishiga va

qurolli nizolarga sabab bo'lmoqda. Huquq muammolari har bir insonga to'g'ridan – to'g'ri yoki bevosita tegishlidir.

1 dekabr 1993 yilda 153 mamlakat bola huquqlari haqidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish yo'li bilan, o'zlarining bolalar kelajagini muxofaza qilishga tayyor ekanligini namoish etdilar. Bola huquqlari haqidagi Konvensiya – bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bola huquqlari haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir. Konvensiya - bola huquqlari haqidagi universal rasmiy Kodeksdir. Konvensiyada bolalar huquqlari to'rt toifaga ajratib berilgan bo'lib, ular 54 moddani o'z ichiga qamrab olgan.

1. yashay olish huquqi: bola talablarini qondirish va hayotiy huquqlarni o'zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli, hayotiy me'yorlarni o'z ichiga oladi.

2. rivojlana olish huquqi: bolaning o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari uchun zarurdir. Bunga misol qilib, bilim olish, o'yin, xordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlarini olish mumkin.

3. bolalar zo'ravonlik va eksploatatsiya qilinishdan ximoyalangan bo'lishlari shart. Bu borada quyidagi muammolarga ya'ni: qochoq bolalar muammosi, adliya tizimidagi zo'ravonliklar, bolalarni qurolli nizolarga jalb etish muammolariga, bolalar mehnatiga; balog'at yoshiga etmaganlarni seksual eksploatatsiya qilish va o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish muammolariga alohida e'tibor bo'lishi kerak.

4. Ishtirok etish huquqi: bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu toifa bolalarning hayotiga taalluqli bo'lgan muammolar bo'yicha jahonshumul yig'ilish va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o'z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo'lish kabi huquqlarni belgilaydi. Bolalar ulg'ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha paydo bo'luvchi imkoniyatlarning xammasiga ega bo'lib borishlari, hamda hayotiy muhim echimlarning mas'uliyatini his qilgan holda ularni o'z zimmlariga olishga tayyor bo'lishlari kerak.

Butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'mini topib ketish huquqlariga egadirlar. Bola huquqlari haqidagi Konvensiyaning 19 moddasiga ko'ra "Bola ota-ona yoki har qalay boshqa shaxs tomonidan haqoratlanishi, qo'pol muomilada bo'lishdan himoyalaniishi huquqiga egaligini inobatga olib, ayrim mamlakatlarda ilgari ishlatiladigan atamalardan "defektologiya", "anomal bolalar", "aqlan zaif" kabi va boshqalardan voz kechmoqdalar. XIX asming 20 yillaridan beri defektologiya fani – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar talim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan sifatida o'rganilib kelmoqda. Xozirgi kunda bu fan «korreksion pedagogika» deb Xam yuritilmoqda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni xaqoratlamaslik uchun Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti "Korreksion pedagogika ilmiy tadqiqot instituti" deb nomlanmoqda. Defektologiya fanining predmeti- anomal bolalar. jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar anomal (yunoncha anomalos- odatdan tashqari), norasao degan ma'noni bildiruvchi so'zi bilan yuritiladi.

Xozirgi kunda Uzbekistonda Defektologiya —maxsus yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Defektologiya so'zi lotincha *defekt* — *kamchilik*, *nuqson*, yunoncha *logos* — *ta'limot*, *fan*, *urganish* degan suzlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar *anomal bolalar* deyiladi (yunoncha *odatlan tashqari*, *noraso* degan ma'noni bildiruvchi *anomalos* suzidan olingan). Defektologiya fanining mavzu bahsi anomal maxsus yordamga muxtoj bolalardir. Defektologiya fanining vazifasi — anomalialarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini urganish, shular, asosida inklyuziv... yoki differensial ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Defektologiya fanining maqsadi — anomal bolalarga integrasion...inklyuziv, differensial ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni urganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yullarini tarbiyachi hamda o'qituvchilarga ko'rsatib berishdan iborat. Anomalialar har xil bo'ladi, ularning ba'zilari batamom bartaraf etiladi,

ba'zilar bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiradi, ya'ni kompensasiyalanadi. Bola nutqida qo'pol kamchiliklar bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Defektologiya amaliyotida yana shunday anomalialar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensasiyalash, o'rni bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya'ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Defektologiya nisbatan yangi fan. U asosan 19 asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. 1925 yilda Moskva shaxrida Eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor Vigotskiy L. S. boshqardi.

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Defektologiya asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensasiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi...va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sovet psixologiyasi va defektologiyasining nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning tuxtash nazariyasi", "chegara" degenerasiya nazariyasi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy va reaksiyon nazariyalarni fosh etdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy ham salbiy... tomonlarni aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Sog'lom va anomal bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishini I. M. Solov'ev ham har tomonlama o'rgandi. "Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi" nomli kitob shu ishning natijasi bo'ldi. I. M. Solov'ev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o'rganishda chinakam novatorlik ko'rsatdi.

Eksperimental defektologiya instituti 1943 yilda Rossiya Pedagogika fanlari akademiyasining Defektologiya ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi. Hozirgi zamon defektologiya fanining rivojlanishida mazkur institut xodimlarining roli nihoyatda katta buldi.

1920 yilda anomal bolalarni tarbiyalash instituti ochilib, 1925 yilda bu institut 2-Moskva davlat universiteti pedagogika qo'lliyotining defektologiya bo'limiga aylantirildi, 1930 yili V. I. Lenin nomidagi Moskva davlat pedagogika instituti qoshida mustaqil defektologiya qulliyoti tashkil etildi. Hozir Rossiya mamlakatining deyarli barcha jumhuriyatlarida defektologiya qulliyotlari yoki bo'limlarida oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi yo'lga qo'yilgan.

Uzbekistonda defektologiya fanining rivojlanish 1967 yildan boshlab tezlashdi, chunki shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya qo'lliyoti qoshida oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limga 1976 yili surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984 yili esa mustaqil defektologiya qo'lliyotining bir necha bo'limida ta'lim berila boshlandi. Hozir TDPU BTU va defektologiya fakultetida bu erda 3 kafedra: "Oligofrenopedagogika va logopediya", "Surdopedagogika va tiflopedagogika" BT kafedralari ishlab turibdi...defektolog bakalavr va magistlar taxsil olmoqdalar. Tallim kunduzgi va sirtqi bo'limda...uzbek va rus tilida tashkil etilgan. Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: surdopedagogika (lotincha *surdus* — *kar*, *gung* so'zidan olingan) — eshitish qobiliyati zaif bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; tiflopedagogika (yunoncha *tiflos* — *ko'r*, *so'qir* so'zidan olingan) — kurish

qobiliyati zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; oligofrenopedagogika (yunoncha *oligos* — kam, *fren* — aql), so'zlaridan olingan, — aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; logopediya (yunoncha *logos* — so'z, *padeo* — tarbiya so'zlaridan olingan) — og'ir nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini urganadigan fan

2\$ Inklyuziv talim

Ipsli\$ion№op-vklyuchenie vo vzaimodeystvie s detmi bez otkloneniya v razvitii.

1992...1994 yillarda YUNESKO "Maxsus talim zaruriyati"

nomli xujjatni tayyorlab...unda maxsus talimga muxtoj bolalar va yoshlar uchun talimni tashkil etish va takomillashtirish masalalari kurib chiqilgan .Ushbu talim turida asosiy urin reabilitasiya masalalariga ajratilgan.Maxsus talimni aloxida yordamga muxtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad...jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va usmirlarni mustaqil...xamma qatori yashash sharoitida...jamiyatga tiklash. Bolada nuqson bulishiga qaramay uning qHlidan keladigan ish turini unga o'rgatib...uqitib...tarbiyalab...jamiyatda o'z urnini topib ketishga yordam berish-ijtimoiy reabilitasiya.

Rivojlangan mamlakatlarda "Maxsus talim zaruriyati"nomli xujjatga javoban SVR –Reabilitasiya tashkiloti (Sommip№t№ Vased Reabilitatlop) tashkil etildi. Tashkilot nogironlar jamiyati...nogbronlar oilalari...sog'liqni saqlash vazirligi...ijtimoiy taminot vazirligi hamda kasaba uyushmalarini vakillarini o'z ichiga qamrab olgan.

Bunday nufuzli tashkilotning asosiy maqsadi-jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolalarni himoyalash...xuquqlarini tiklash ...vakolat berish...talim-tarbiya tizimini shakllantirish...jamiyat va raxbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.

CHegaralangan imkoniyatlarga ega bulgan bolalar uchun tashkil etilgan talim tizimida birinchi navbatda bolaning ijobiy tomonlari...qobiliyati hisobga olinadi...kamchilikmari urganiladi...talablari aniqlanadi. Ushbu talim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikasiya...kompensasiya...adaptasiya reabilitasiyalar kiradi.Agarda bola eshitmasa uni eshitish apparati bilan ta'minlash...yuraolmasa nogironlar aravachasidan foydalanish... qulida oddiy qoshiq ushlay olmasa uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash vaboshqalar.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o'zgaruvchan...g'amxurlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy... sog'lom bolalar ukuv muassasalarida amalga oshiriladi.Inklyuziv-jalb etish (vklyuchenie)degan ma'noni anglatadi...ya'ni jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan uzaro bog'lanib...birgalikda ta'lim olishidir.Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish...nuqsonidan kelib chiqqan xolda ma'lum u uchun qulay sharoit yaratish... kerak bulsa dastur va rejani qisman uzgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin...o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki maktabga qatnaydi. U erda asosiy ishni sinf rahbari amalga oshiradi.Xar bir maktabda maxsus tayyorlangan resurs uqituvchi bulib...u sinf rahbariga maslahatlar beradi va kumaklashadi: maxsus uqitish uskunolari...aparatlari bilan ta'minlaydi;ota-onalar...o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari utkazadi:dars jadvali...dasturga kerak bulsa uzgartirishlar kiritadi...ularni asoslab beradi; uqituvchilarni malakasini oshiradi...bilim maxoratini boyitadi;sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi...qulay psixologik muxitni yaratadi.Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integrasiya yo'lidagi birinchi qadam.Ta'lim integrasiyasining turli shakllari va darajalari mavjud.Jismoniy integrasiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy taffovut iloji boricha kamaytirilishi lozim.Buning uchun maxsus sinf yoki bulim tashkil etilishi mumkin.Funksional integrasiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funksional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim.Buning uchun maxsus yordamga muxtoj bolalarni musiqa...san'at...drammatik tugarak va sportga jalb etish foydalidir.

Ijtimoiy integrasiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga...nogoron va sog'lom bolalarni uzaro dustlashishga...bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi...sog'lom bolalarni muruvatli bulishga o'rgatadi.Jamiyat nogiron kishilarga tug'ri munosabatda bulishi kerak. Konstitusiyamizdagi barcha bantlar ular uchun ham ta'alluqli. Har qanday ta'lim integrasiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi...unga xar tomonlama g'amxurlik kursatiladi.

Integral-mujassam...ajratib bHlmaydigan qism degan maʼnoni bildiradi.Xar bir bola taʼlimga jalb etilishi lozim.Integrasiyalashgan jamiyatda barchalar teng xuquqga ega...bu yaxli jamiyatdir. Inklyuziv taʼlim tufayli jamiyat integrasiyalashgan jamiyatga aylanadi. 2001 yilda YUNESKO “Xamma uchun taʼlim”dasturini qabul qiladi. Uzbekiston

Respublikasi ushbu dasturga imzo chekdi aʼzo buldi.Dastur global keng miqyosida “Xamma uchun taʼlim”(Obuchenie dlya vsex) joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi.Demak...ushbu dastur Uzbekistonda ham joriy etilishi lozim.

Xozirgi kunda davlat tomonidan inklyuziv taʼlim haqidagi xujjatlar xali rasmiylashtirilmagan bulsada...hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan holda turli nodavlat tashkilotlar chet ellarda bu ishlarning ahvolini oʻrganib chiqib...inklyuziv taʼlimning ayrim turlarini joriy etmoqdalar. Uzbekistonda YUNESKONING taʼlim buyicha maslahatchisi...yordamida...Respublika taʼlim markazining maxsus taʼlim bulimi aʼzolari..."Oila" Ilmiy pedagogik markazi...Nogiron farzandli ayyollar jamiyatlari..."Umr"...markazi..."Uloʻbki detyam"halqaro jamiyatning Uzbekistondagi guruxi (Lorans Mirelett-direktori)... "Umid"markazi...(Maxmudova N.M.-direktor)...xalqaro"Opereyshin Mersi"tashkiloti (direktor-Andreya Vogt)... "Kenes-"sentr reabilitatsii i trudovoy adaptatsii (direktor-Suleeva M.M.)..."Beguborlik"-ijtimoiy birlashma (raisi-AbdubekovaD.N)... "PEGAS-AL-FALAK"markazi (direktor-AminovaV.YU.)"KRIDI"... "Feniks"markazi (direktor-YUsupova G.S.Navoid)...va boshqalar talaygina muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Uzbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari xam diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv taʼlim elementlari talaygina. Kup yillardan beri umumtaʼlim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli oʻz vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir rayondagi yordamchi maktab ommaviy maktablarda ulgurmovchi oʻquvchilar bilan yil davomida maʼlum ishlarni olib borishadi, ular uchun maxsus sinflar tashkil etiladi. Bola uyiga yaqin maktabga qatnaydi. YOrdamchi tenglashtiruvchi sinflar, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv taʼlimga kiritilishi mumkin.

2001 yildan boshlab Oʻzbekiston Salomon deklarasiyasiga binoan yaratilgan (Taʼlim tizimi anomal bolalarni qabul etib, ularning taʼlim tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozimligi haqida)- ("Obuchenie dlya vsex") "Hamma uchun taʼlim" dasturini amalga oshirishga imzo chekkan ekan, barcha taʼlim hodimlari bu ishga oʻz xissalarini qoʻshib, inklyuziv taʼlimni takomillashtirishda qatnashishlari lozim.

ADABIYOTLAR

- 1.Salamanskaya deklarasiya. – Ispaniya, 1994
2. Inklyuziv taʼlim Tuve Djonson Mejrijeonalnaya programma po obucheniyu invalidov (Opereyshin Mersi)
Vsemimoʻy forum po obrozovaniyu Zaklyuchitelnoʻy doklad Nyuyork, 1990
- 3.Bola huquqlari toʻgʻrisida konvensiya. - Oʻzbekiston bolalar jamgʻarmasi.
- 4.T. A. Vlasova, M. S. Pevzner. Kamol topishda kamchiliklari boʻlgan bolalar haqida. T., "oʻqituvchi", 1976.
- 5.Defektologicheskiy slovar. APN SSSR, NIID, Pedagogika, 1970.
- 6.3. G. N. Kobernik, V. N. Sinev. Vvedenie v spetsialnost defektologiya. Kiev. Glavnoe izdatelstvo obʻedineniya Voʻsshaya shkola, 1984.
7. L. Moʻminova, M. Jahramonova. Logopediya terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. Toshkent, oʻqituvchi, 1988.
8. K.K.Mamedov, T.B SHoumarov, V.P.Podobed Ruhiiy rivojlanishi sustalashgan bolalar haqida T., 1993
9. V.S.Raxmanova Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
10. T.B.SHoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. T., "Mehnat" 2000.

SAVOL VA TOPSHIRIHLAR

1. Defektologiya fanini ta'riflab bering.
2. Bu fanning vazifalari nimadan iborat?
3. Korreksiya va kompensasiya nima?
4. Defektologiya faning rivojlanishi haqida gapirib bering.
5. Defektologiya fanining qaysi sohalarini bilasiz?
6. Integratsion ta'lim nima degani?
7. Inklyuziv ta'lim uchun nimalar kerak?
8. Bola huquqlari haqidagi Konvensiyani o'qing.

3 §. MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ ANOMAL BOLALAR TOIFALARI

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq kuradi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni xis etadi.

Tevarak atrofdagi borliqni bilish — sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi.

Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: kurish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, kuzi kurayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi — buyumlarni kurishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning uz vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining uz vaqtida va tug'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruxiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir kursatadi. Bolalar nutqi rivojlanishga boshlashi bilan kattalar suzlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga uz munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati — bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.

Bolaning xoh ona qornida, hoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruxiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Defektologiya fanida maxsus yordamga muxtoj — anomal bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi: Ular quyidagilardir:

- 1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (tug'ilishdan kar, zaif eshituvchi bolalar", keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar);
- 2) kurish qobiliyati zaif (kur, zaif ko'ruvchi bolalar);
- 3) kur-kar-soqov bolalar;
- 4) oligofren (debil, imbesil, idiot bolalar);
- 5) og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 6) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bulgan bolalar;
- 7) ruxiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar.

Anomal bolalar soglom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan,

bolaning faqat chap qulog'i eshitsu-yu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u umumiy maktab sog'lom tengdoshlari katori uzlashtiradigan bulsa, u anomal bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas.

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarning jismoniy ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratalishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular maxsus yordamga muhtoj.

Har qanday anomal rivojlanish markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, notug'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bulishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, uqituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa kupgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatib, uning dastur materiallarini yaxshi uzlashtira olmasligiga, ulgurmovchi uquvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab buladi. SHunday bulsada, biz bunday bolani anomal bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bulmasin biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bulmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan.

Tarbiyachi va uqituvchilar bunday bolalarni anomal bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomalialar ko'p jihatdan xomilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi xomilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikasiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning xomiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomalialar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaifliklarning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (Daun kasalligi, rezus faktorning mos kelmasligi va boshqalar).

Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan anomalialar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. To'g'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakuum-ekstraktor yoki ombur solinishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning juda yoshligida turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar anomaliasining oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda medisina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikasiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

SAVOL VA TOPSHIRIKLAR

1. YOsh go'daklar rivojlanishining xususiyatlarini ta'riflab bering.
2. Anomal bolalar deb kimlarni aytamiz?
3. Anomal bolalarning qanday toifalarilari mavjud?
4. Anomal bolalar qacda ta'lim olishlari kerak va nima uchun?
5. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari nima?

6. Maxsus yordamga muxtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?

3- BOB ANALIZATORLARIDA KAMCHILIKLARI BOR BOLALAR

\$1 ESHITISH NUJSONLARI BOR BOLALAR

Nutq — murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib,atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi.Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Defektologlarning (T.A. Vlasova, R. M. Boskis, D. V. Neyman va boshqalarning) bergan ma'lumotlariga ko'ra, eshitishda nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligiga va og'ir-engilligiga bog'liq. Surdopedagogikada eshitishda nuqsonlari bor bolalar kar-soqov , zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar guruhiga bo'lib o'rganiladi.Tug'ma hali tili chiqmagan go'daklik davrida ikkala qo'loqning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so'ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo'laveradi.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25—30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallinishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning xomiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa streptomisin, xinin, singari dorilarni), xomilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi — bituvi).

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalalarning keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi nevrilarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining engil darajalari ham bolaning xar tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan,. ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham

asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'mini to'ldirib, boshkaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nugqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barchazarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

YUqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'liq buzilganiga qarab engil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Engil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6—8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3—6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4—6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1—3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Julog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan — gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish — o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjahl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Engil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy bog'cha va maktabda tarbiyalanishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini batamom bartaraf etish, to'la kompensasiyalash, mumkin. Tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifasi — sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning "maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini ta'minlashdan iborat.

2\$ KO'ZI OJIZ BOLALAR

Ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan idrok etiladi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'mi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism-ko'z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko'zga tushgan tasvirni avval po'stloq osti markazlariga, keyin esa oliy ko'ruv markazlari joylashgan katta miya po'stlog'iga (ensa bo'laklariga) etkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan. Ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r (so'qir), yaxshi ko'ra olmaydigan, ko'zi xira bolalar guruhiga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganida (ko'zoynak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruxdagi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar (masalan, tug'ma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), xomilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, xomila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytida zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'ynaydi.

Orttirilgan ko'rish anomaliyalari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilangani tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida bolalarning ko'r yoki zaif ko'ruvchi bo'lib qolish hodisalariga deyarli tamomila barham berildi.

Ko'z ojizligi, ya'ni ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va bir xil turadigan (muqim) bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin og'irlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi doim bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan zaifligi, ko'ksuv, ya'ni glaukoma kasalligi (ko'z ichki bosimining ko'tarilib ketishi) ko'ruv nervi atrofiyasi, to'r parda (ko'zning yorug'likni qabul qiladigan qismi) distrofiyasi (aynishi) ga bog'liq bo'lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin. Gigienik talablarga rioya qilmaslik refraksiya anomaliyalar bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklari zo'rayib borishiga ham olib keladi (faqat yaqindan yoki uzoqdan ko'rishga).

YOsh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar xam uchraydi: kriptofthalm - ko'z olmasi, qovoqlarining tug'ilishdan rivojlanmay qolgani; mikroblefaron -ko'z qovoqlar kaltaligi tufayli ko'zning yumilmay turishi, koloboma — ko'z qovoqlarining nuqsoni va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday kamchiliklarning ko'pchiligini jarrohlik yo'li bilan davolab, ularni bartaraf etsa bo'ladi.

Ko'zi ojiz, so'qir bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tug'ilishdan ko'zi ojiz va tug'ilganidan so'ng to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ko'r bo'lib qolgan bolalar kiritiladi, bunday bolalar xotirasida ko'rish tasavvurlari qolgan bo'ladi. Ko'rish qobiliyatining og'ir shakldagi buzilishlari bolaning xarakterida, psixikasida ikkilamchi asoratlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'r bo'lib qolgan bolalar bilan barcha ishlar ularning ko'rish tasavvurlarini tiklash asosida olib boriladi va bunda ma'lum natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Har holda bola rang, shakl va boshqalarni bir qadar eslab qoladiki, bu tegishli tushunchalar hosil qilishni osonlashtiradi. Ko'z ojizligi qancha kech paydo bo'lgan bo'lsa, bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari shuncha boy va ularni mustahkamlash, takomillashtirish, kenggaytirish shunchalik oson bo'ladi.

Ko'rish qobiliyati keskin kamaygan bolalar ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablarda yoki sog'lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Bu maktablarda sog'lom analizatorlarning aktiv faoliyati asosida (tuyg'u va eshitish, boshqa sezgi analizatori) ko'rish analizatori faoliyatini qoplash ishlari olib boriladi. Maxsus ta'lim-tarbiya ishlari ko'rish qobiliyatining zaifligi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi psixik asoratlarning oldini olish, ularni bartaraf etish, korreksiyalashga qaratiladi. Bolada mustaqil hayot uchun zarur bo'lgan barcha bilim ko'nikma, hamda malakalar shaklantirib boriladi.

Zaif ko'ruvchi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadilar. Ular ham ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktabda yoki ko'rlar maktabi qoshidagi maxsus sinflarda sog'lom tengdoshlari orasida ta'lim olishlari kerak. Biroq bunday bolalar aksari ommaviy maktablarda o'qishni boshlashi ma'lum. Bir necha yil muvaffaqiyatsiz ravishda, qiynalib o'qigach, ular maxsus maktabga yuboriladi. Bunday bolalarni tarbiyachi va o'qituvchilar sog'lom tengdoshlaridan ajratib olib, iloji boricha vaqtli maxsus maktablarga jo'natishlari yoki inklyuziv ta'limni tashkil etishlari kerak. Ko'rish qobiliyati zaiflashgan bolalar satrlarni yaxshi ajrata olmaydilar, shakli o'xshash narsa, harflarni bir-biri bilan adashtirib yuboradilar, natijada o'qish va yozishda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Raqamlarni bir-biridan yaxshi ajrata olmaslik oqibatida hisoblashda va matematika masalalarini echishda qiynaladilar. Ular doskaga yozilganlarni, jadval, sxema va boshqa tasvirlarni yaxshi ko'rmaydilar, ko'rish bilan bog'liq ishni bajarish vaqtida tez charchab qoladilar.

Noto'g'ri muhit, noqulay sharoit bolaning ko'rish qobiliyati keskin pasayib borishiga olib kelishi mumkin.

Tarbiyachi va o'qituvchilar ko'rish qobliliyati zaif bolalarni o'z vaqtida oftalmolog huzuriga maslahatga yuborishlari kerak.

Oftalmolog bolani tekshirib, kerak bo'lsa unga korreksiya qiladigan ko'zoynak taqib yurishni tavsiya etadi va bola qayerda ta'lim olishi kerakligini aniqlaydi. Ko'zoynak taqib yurishi kerak bo'lgan bolalarga bog'cha va maktab sharoitida to'g'ri sanitariya-gigiena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o'rni to'g'ri va etarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o'quv materiallarini qanchalik aniq ko'rayotganiga e'tibor beriladi. Anomal refraksiyali bolalarning ko'zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o'zgartirib turish, ko'z qadash bilan bog'liq bo'lgan ishlar, topshiriqlar hajmini g'oyat jiddiy nazorat qilib borish zarur.

Ko'z o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lgan zaif ko'ruvchi bolalar maxsus bog'cha va maktablarda ta'lim-tarbiya olishadi. Bu joylarda o'quv ishlari ko'rish asosida olib boriladi, ammo turli texnik va kattalashtiruvchi optik vositalardan, yirikroq harflar bilan bosib chiqarilgan darsliklardan, maxsus yoritgichlardan va hokazolardan foydalaniladi. Maxsus maktabning asosiy vazifalaridan biri — bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va ularni rivojlantirish, ko'rish qobiliyati pasayib ketmasligi uchun shart-sharoit yaratish, oliy ruhiy jarayonlarni tarbiyalab, bolaning bilim faoliyatini rivojlantirish, kengaytirish, bolada ko'rish qobiliyati zaifligi natijasida paydo bo'lgan ikkilamchi ruhiy asoratlarni bartaraf etish va boshqalardir.

Maxsus maktablarni bitirgach, ko'rish qobiliyati zaif bolalar jumhuriyat ko'rlar jamiyati qoshidagi muassasalarda ishlaydilar, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadilar (yozuvchi, shoir, oliy va o'rta maktab o'qituvchilari, muzikachi, va boshqalar bo'lib).

SHunday qilib, ko'rish qobiliyati zaif bolalarni ta'lim-tarbiya yo'li bilan rivojlantirib borish imkoniyatlari juda katta, to'g'ri tashkil etilgan kompensator, korreksion. chora-tadbirlar natijasida ular hayotida o'z o'rnini topib ketishlari mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIKLAR

1. Bolaning rivojlanishida eshituv analizatori qanday o'rin tutadi?
2. Eshituv nuqsonlarining qaysi turlarini bilasiz?
3. Eshituv nuqsonlarining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
4. Eshituv nuqsonlari bor bolalar qayerda tarbiyalanishi zarur?
5. Ko'rish analizatorining ahamiyati nimada?
6. Ko'rishdagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari nimada?
7. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar bilan ommaviy maktab va bog'chalarda olib boriladigan ishlarni ta'riflab bering?
8. Sensor nuqsonli bolalar bilan inklyuziv integrasion ta'lim qanday tashkil etiladi ?
9. Ko'rish qobiliyatida kuzatiladigan nuqsonlarning oldini olish va bartaraf etish uchun nimalarni bilish kerak ?
10. Ko'zi ojiz bolalar uchun O'zbekistonda qanday muassalar tashkil etilgan?

ADABIYOT

1. Boskis R.M. Uchitelyu o detyax s narusheniyami sluxa. M., Prosveshchenie 1987.
2. Zemsova M. I. Uchitelyu o detyax s narusheniyami zreniya. M., 1973.
3. Litvak. A.G Tiflopsixologiya-M. 1985.
4. YArmachenko N. D. Problemo' kompensatsii gluxoto' — Kiev, 1975, s. 148—163.
5. Osnovo' obucheniya i vospitaniya anomalno'x detey. (Pod red. A. I. Dyachkova. M., Prosveshchenie, 1965, s. 38—48, 65.
6. Defektologicheskiy slovar. — M., 1970.

4-BOB. INTELLEKTUAL NUJSONLI BOLALAR.

1§ OLIGOROFREN BOLALAR TA'RIFI

Oligofreniya yunoncha *oligos* — *kam*, *oz fren* — aql so'zlaridan olingan bo'lib, esi past, aqli past demakdir. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi va bu nuqsonlar umrbod saqlanib qolish bilan boshqa anomal bolalardan farq qiladilar.

Amaliyotda "aqlan zaif", "oligofren", "demensiya" degan atamalar ko'p ishlatiladi. "Aqlan zaiflik" — bu yig'ma tushuncha bo'lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo'lgan vaqti, boshidan kechirilgan kasallikning xarakteri, patologik o'zgarishlarning o'tishi, darajasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'zda tutadi.

Aqliy qoloqlikni belgilashda klinik, psixologik va pedagogik mezonlarni tafovut qilmoq kerak. Klinik mezon — aqliy qoloqlik va bu markaziy nerv sistemasining qanday organik kasalliklariga aloqadorligini, psixologik mezon-bilish faoliyatining turg'un buzilganligini; pedagogik mezon — o'zlashtirish qobiliyati past bo'lib, bolaning dastur materiallarini o'zlashtira olmasligini ifodalaydi.

Oligofreniya bola markaziy nerv sistemasining ona qornidaligi davrida, tug'ilish vaqtida va tug'ilgandan to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi. Agarda, turli sabablarga ko'ra, aqlan zaiflik bolaning uch yoshidan keyingi davrida paydo bo'lsa, buni endi orttirilgan aqliy zaiflik - demensiya deb yuritiladi. Demensiya progressiv, ya'ni tabiatan kuchayib boradigan bo'ladi. Oligofreniyada esa nuqsonning kuchayib borishi kuzatilmaydi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra oligofreniya tug'ma, hamda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Rezus faktorning to'g'ri kelmasligi, xromosom kasalliklari, fenilketonuriya va shu kabilar tug'ma oligofreniyaga olib kelishi mumkin.

Masalan, oligofreniyaning, Daun kasalligi deb ataladigan bir turli xromosomalar nisbatining buzilishi natijasida 46 ta yoki 23 juft xromosoma o'miga bitta ortiqcha xromosomaning vujudga kelish natijasida paydo bo'ladi. SHunisi qiziqki, irsiy hujayralardagi patologik o'zgarishlar Daun kasalligi bilan kasallangan barcha oligofren bolalarning tashqi ko'rinishini bir xil qilib qo'yadi. Ular kam harakat, beso'naqay, ko'zlari qisq, burni puchuq, tili katta, lablari qalin, shalpang quloq, barmoqlari kalta bo'ladi va hokazo. Millatidan qat'i nazar, ular bir ota-onaning bolasiga o'xshab ketishadi.

Onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar — og'ir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizmidagi turli parazitlarning

homilaga yuqishi, xomilaning shikastlanishi, ota-onalarning alkogolizmi, ham oligofreniyaga sabab bo'lishi mumkin.

Fransuz olimlari alkogolizmga giriftor oilalarda tug'ilgan 57 nafar bolani uzoq muddat kuzatib borib, ularning 25 nafari 1 yoshga to'lmasdan nobud bo'lganini, 5 nafari tutqanoq — 5 — nafari gidrosefaliya (bosh miyada istisnosi) kasalligi bilan og'rganini, 12 nafari aqlan zaif bo'lgani va faqat 10 nafar bola sog'lom chiqqanini aniqlagan.

Tug'ruq vaqtida bolaning ombur yoki vakuum ekstraktor bilan olinishi, bola boshining siqilishi, bolaning tug'ilish yo'lidan uzoq o'tishi, cho'zilib ketgan yoki, aksincha, haddan tashqari tez o'tgan tug'ruq natijasida ham markaziy nerv sistemasi shikastlanib, oligofreniya paydo bo'lishi mumkin.

Oligofreniya bola uch yoshgacha bo'lgan davr ichida turli xil og'ir kasalliklar bilan kasallanishi (meningit, meningoensefalit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi) natijasida ham vujudga keladi.

Aqliy (intellektual) rivojlanishiga ko'ra oligofreniya uch darajada namoyon bo'ladi: 1) debillik; 2) imbesillik; 3) idiotiya. Debillik — aql pastlik oligofreniyaning eng engil darajasi bo'lib, bunday bolalarni tashqi ko'rinishiga qarab sog'lom tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Ular ko'pincha o'qishni ommaviy maktabning birinchi sinfidan boshlaydilar-u, lekin qisqa muddat ichida ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qoladilar. Umuman, zehn va fahm-farosatga bog'liq ishlarda debil bolalar ancha qiynaladi, biroq ular yordamchi maktabga o'tib, dasturini o'zlashtirib chiqishsa, sanoat va hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, maishiy hizmat sohasida oddiy turdagi mehnat bilan shug'ullana oladi. Tarbiyachi va o'qituvchilar debil bolalarni boshqa bolalardan ajratib olib, ularning maxsus bog'cha va maktablarda tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlashlari yoki integrasiyalashgan ta'limga jalb etishlari lozim.

Imbesil va idiot bolalar xattoki yordamchi maktab dasturi bo'yicha ham ta'lim olish qurbiga qodir emaslar. Ular ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi bolalar internatlarida tarbiyalanadilar. Ammo umumiy rivojlanishida kamroq orqada qolgan imbesil bolalar, afsuski, yordamchi maktablarda goho uchrab turishadi. Ular yordamchi maktab dasturini o'zlashtira olmaydilar. Idiot bolalar hattoki o'z ota-onalarini ham tanimaydi. Ular o'zini-o'zi uddalay olmaydi, o'ziga-o'zi xizmat ham qila olmaydi. Imbesil bolalar idiot bolalarga qaraganda nisbatan tuzukroq rivojlangan bo'lsa ham, mustaqil hayot kechirolmaydi. Mexnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qoshidagi muassasalarda ularga sodda bilimlar, mehnatning ayrim sodda turlari (o'z-o'ziga xizmat qilish, ekinlarni parvarish etish, kartondan qutichalar yasash va h. k.) o'rgatiladi.

Oligofreniyaning uchala darajasida ham tarbiyachi va o'qituvchilar oligofren o'quvchilarni sog'lom tengdoshlari hamda o'xshash tarzdagi boshqa kamchiliklari bor bolalardan ajrata olishlari lozim. Lekin oligofreniyaning eng engil darajasini — debillikni boshqa o'xshash anomaliyalardan va sog'lom bolalardan ajratib olish amalda ancha kiyin bo'ladi.

Debil bolalar o'z sog'lom tengdoshlaridan yoshligidanoq farq qiladi. Ularda, odatda, ixtiyoriy shakldagi murakkab harakatlar uncha rivojlanmagan bo'ladi. Ular boshini tutish, o'tirish, yurishga kechroq o'rganadi, nutqi kechikib rivojlanadi. Debil bolalar atrofdagilarning sodda nutqini tushunadi-yu, lekin murakkab so'z va gaplarni, iboralarni fahmlay olmaydilar. Debil bola nutqida qo'pol, uni tushunib bo'lmaydigan nuqsonlar kuzatilmasa ham, ko'p tovushlar noto'g'ri talaffuz etiladi, bunday bola lug'ati kambag'al, chegaralangan bo'ladi. Debil bolalar o'yin faoliyatida ham tengdoshlaridan ajralib turadi. Ular o'yin vaziyatini etarli darajada tushunmaydi, o'yin, vaqtida sog'lom tengdoshlariga to'liq bo'ysunib, ikkinchi darajali rollarni bajaradi, xolos.

Debil bolalar uchun bir qator fahm-farosat etishmasligi xarakterlidir. Ularning kuzatish, taqqoslash, idrok qilayotgan narsalarning, voqea-hodisalarning muhim tomonlarini ajratib ko'rsatish, bular o'rtasidagi eng oddiy sabab-natija bog'lanishlarini fahmlab olish qobiliyatlari rivojlanmay qoladi. Debil bolalning tafakkuri, dikkati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatlari ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Savod o'rgatishning dastlabki davridayoq bu bola tovush va harflar o'rtasidagi bog'lanishlarning farqiga yaxshi bormay harflarni eslab qolish, bo'g'inlab o'qish, tez ravon o'qish malakalarini o'zlashtirishda qiynaladilar, juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar.

Debil bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklar matematika darslarda ayniqsa yakqol namoyon bo'ladi, negaki, eng oddiy hisoblash amallari ham abstrakt hisoblashni talab etadi. Debil bolalar tartib sonlarni o'zlashtira oladilar, lekin qo'shish va ayirish, teskari sanash, eng oddiy masalalarni, misollarni echishda juda qiynaladilar. Ular misolni mohiyatini, masalaning mazmunini va raqamli ma'lumotlarni tushunolmaydilar.

Nerv jarayonlari muvozanati, bilish faoliyatining buzilganligi natijasida oligofren hulq-atvorida ham bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Jo'zg'alish va tormozlanish o'rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim oligofren bolalar haddan tashqari jonsarak, serharakat, sho'x bo'ladilar va tormozlanish jarayoni ustun turgan bolalarda esa, aksincha, passivlik, bo'shanglik, beparvolik, hech narsaga qiziqmaslik kuzatiladi va hokazo.

Oligofren bolalar vaziyatni etarli darajada anglay olmaydilaro, hatti-harakatlarni vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. YUqorida ko'rsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi mehnat maktablarida ta'lim-tarbiya olib chiqqan debil bolalar hayotda o'z o'rnini topib, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida, maishiy xizmat sohasida faol mehnat qilib yashamoqdalar. Tarbiyachi va o'qituvchilarning muhim vazifasi oligofren bolalarni boshqa anomal bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlab berishadi.

1. Aytmetova S.SH YOrdamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari-T. O'qituvchi 1984
2. Aytmetova S.SH Oligofrenopedagogika-T. 1994
3. Mamedov K, Po'latova F. Oligofrenopedagogika-T. 1996
4. Gavrilushkina O.P, Sokolova N.D Vospitanie i obuchenie umstvenno otstalo'x doshkolnikov. –M, 1985
5. Vayzman N.P Psixologiya umstvenno otstalo'x detey-M 1997.
6. Zabramnaya S.D Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika umstvenno otstalogo. Razvitiya detey M , 1995
7. Zamskiy X.S. Umstvenno otstalo'e deti. Istoriya ix izucheniya, vospitaniya i obucheniya s drevnix vremen do seredino' XX v. M , 1995.
8. Kataeva A.A. Strebleva E.A Didakticheskie igro' i uprajneniya v obuchenii umstvenno otstalo'x doshkolnikov. Kniga dlya uchitelya M. 1993
9. gogov i roditeley. Sankt-Peterburg 2000.
10. Raxmonova V.S Defektologiya va logopediya asoslari. T, 1991.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Oligofren bolalar deb qanday bolalarni aytamiz?
- 2.Oligofreniyaning kelib chiqish sabablari nimada?
- 3.Oligofreniyaning darajalarini aytib uting?
- 4.Debil bolalarning rivojlanish xususiyatlarini ta'riflab bering.
- 5.Aqlan zaif bolalarga qanday bolalar kiradi?
- 6.Aqlan zaif , oligofren bolalar qaerda ta'lim-tarbiya olishlari kerak?

2 \$ RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati– intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi,ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari va pedagogik qarovsizlik, oilaviy mojaro, noto'g'ri tarbiya qo'shilishi natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi.Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Egorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, T.B.SHoumarov, N.A.Sipina, R.D.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruhga bo'linadi:

- 1.Engil nuqsoni bor bolalar – bular maxsus sharoitda 1- 3 yil ta'lim- tarbiya olganlaridan keyin o'qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.
- 2.Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi kerak.Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi., ya'ni o'rtacha o'quvchining soviyasini orqaga tortadi, yaxshi va a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarni etarli darajada o'stirishga to'sqinlik qiladi.

Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmaganligi tufayli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar doim muvaffaqiyatsizliklarga uchrayveradi, bu narsa ularning hulq-atvorida aksariyat turli salbiy xislatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, E.M.Dunaeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi hillarga bo'lishni tavsiya etadilar: 1) konstitusional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4) serebral shakli.

Ruhan sust rivojlanganlikning konstitusional shaklini xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarinikiga nisbatan 1- 2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagilarga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali "etilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi konstitusion shakldagi bunday bolada ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda xar xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi. Bolada surunkali infeksiyalar, allergik holat tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turadi. Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sib-unmagan, go'dak taxlit bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari ruhan rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan bo'ladi. SHu xildagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish, bunda bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda etishmasligi ustiga o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning etishmasligi ham qo'shiladi.

2. Bolani har tomonlama erkalatish, etarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, tashabbuskorlik, mas'uliyat xissini shakllantirmaslik bolani «oila erkasi» qilib o'stirish, haddan tashqari uning ko'ngliga qarab ish tutish natijasida ham bola ruhiy rivojlanishida bir qadar orqada qolishi mumkin.

3. Bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, jismoniy jazolash, qattiq qo'llik qilish, otalarning alkogolizmga aloqador tajovvuzkorona munosabatlari bolani mudom asabiylashtirib, ruhan rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi. Bunday bolalarda qHpollik, jur'atsizlik, tashabbussizlik, mustaqilsizlik, qo'rqqoqlik va boshqa hislatlar shakllanadi. Bularning hammasi aql-idrokiga, bilish faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto'g'ri tarbiya natijasida paydo bo'lgan hislatlar ham qo'shib pirovard natijasida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik hislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalarni pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar. Xolbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning har tomonlama noto'g'ri rivojlanishi markaziy nerv sistemasidagi engil darajadagi organik jarohatlanish bilan bogliq.

Ruhan sust rivojlanganlikning eng murakkab va keng tarqalgan psixogen shaklida bosh miyaning kasalligiga, yaxshi etilmaganiga aloqador o'zgarishlar kuzatiladi. Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga kura bunday bolalarning 50 foizida nerv sistemasida organik nuqsonlar bo'ladi. Bu narsa ularning his-tuyg'u, irodaviy holatlari taraqqiy etmaganligiga, asosan organik infantilizm tarzida namoyon bo'ladi. Miyaga aloqador organik infantilizmni ikkiga bo'lishi mumkin:

1. Kayfi-ruxiyati o'zgarib, aksari, ko'tarinki ruhda bolalar, ularda o'zlaridan yosh bolalarga xos hislatlar saqlangan bo'ladi.

2. Kuproq kayfiyati past bo'lib mayus tortib yuradigan bolalar, ularda vazifani mustaqil hal qila olmaslik, tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari ko'riladi.

Miyaga aloqador organik xarakterdagi yana shu ikki xil infantilizm ko'p holatlarda qator qo'shimcha hodisalar bilan birga davom etadi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Serebral-endokrin infantilizm. Bunda asosan ichki sekresiya bezlari faoliyati buzilgan bo'ladi. Natijada bolalarda his-tuyg'ular yaxshi rivojlanmay nevropatiya holatlari yuzaga keladi. Bolaning uyquasi, ishtahasi yaxshi bo'lmaydi, dispepsiya holatlariga moyillik paydo bo'ladi.

2. Serebrastenik holatlar, bular ham tez-tez uchrab turadi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi, neyrodinamik o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada aqliy qobiliyati susayib, xotira pasayadi, diqqati tarqoq bo'lib qoladi, tez ta'sirlanish, qiz bolalarda yig'loqilik, o'g'il bolalarda xaddan tashqari qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi, bola ish qobiliyati past, arzimagan narsaga tez charchaydigan bo'lib qoladi.

3. Tabiatan nevrozga yaqin holatlar, bular qorong'udan, yakkalikdan qo'rqish, o'zi va atrofdagilar sog'lig'i uchun xavfsirash, giperkinezlar, duduqlanish, enurez, kabi hodisalar bilan birga ifodalanadi.

4. Psixomotor qo'zg'aluvchanlik – asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Serharakatlik, diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish bunga xarakterlidir.

5. Affektiv o'zgarishlar – kayfu-ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lish bilan xarakterlanadi.

6. Psixopatik o'zgarishlar – aqliy faoliyatga rag'bat pastligi, o'qishga salbiy munosabatda bo'lish, o'g'rilik qilish (kleptomaniya), ko'proq yolg'on gapirish kabi salbiy xislatlarni o'z ichiga oladi.

7. Epileptik buzilishlar – har xil ko'rinishlarda tutqanoq tutib turishi bilan namoyon bo'ladi.

8. Apatik-adinamik buzilishlar – tashabbuskorlik pasayishi, aqliy faoliyat sustligi, xaddan tashqari emosional bo'shanglik bilan xarakterlanadi.

Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrosefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar.

Ruhan rivojlanish kamchiliklarining ba'zi bir shakllarida bolalarni vaqti-vaqti bilan maxsus psixonevrologik sanatoriylarda davolash foydalidir. Sanatoriyada bola kollektiv ishiga asta-sekinlik bilan jalb etiladi. Unda charchash alomatlari paydo bo'lganda, u o'quv mashg'ulotlaridan vaqtincha ozod etiladi yoki unga soddaroq boshqa vazifalar beriladi. Sanatoriyda davolanib kelgandan so'ng bola o'qishni o'z maktabida davom ettiraveradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun mamlakatimizda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari internatlari, kuni uzaytirilgan maktablarda tenglashtirish sinflari tashkil etilgan. Ushbu masalalarda ta'lim umumta'lim oddiy bog'cha yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan muloyim davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolaga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o'smirlar gigienasi instituti xodimlari, jumladan N.P. Vayzman va boshqa olimlarning o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish jihatidan olganda sog'lom va debil bolalar o'rtasida oraliq o'rinda turadi. Bu olimlar tekshirish vaqtida debil va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlarni berib ko'radilar, shunda normal sog'lom bolalar berilgan vazifani to'g'ri tushunib, uni kerakli tartibda bajargan bo'lsalar, debil bolalar vazifani tushunmay,

bajara olmaydilar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani qisman tushunib, qisman bajarishadi. Demak, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqli zaif, debil bolalarga nisbatan ancha yaxshi tushunadi va ularni bajarish uchun ularda kerakli imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o'zlashtirish qobiliyati sog'lom tengqurlariga nisbatan past bo'lsa-da, debil bolalarnikidan ancha durust bo'lganligi uchun bunday bolalarni yordamchi maktabga yuborish noto'g'ri, chunki ushbu maktab dasturi ular uchun soddalik qiladi. Ommaviy maktab esa bola uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratib (maxsus sinf-tenglashtiruvchi sinf ochib) o'z dasturini o'lashtirishini ta'minlash uchun maxsus yordam ko'rsatishi lozim.

Bog'cha tarbiyachilari va boshlang'ich maktab o'qituvchilari ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning maxsus sharoitda ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak, ularni o'z vaqtida aniqlab, boshqa bolalardan ajratib olib, ota-onalarga mutaxassis psixonevrologlarga murojaat qilishga maslahat berishlari lozim. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan inklyuziv sog'lom tengdoshlari orasida yoki maxsus muassasalarda davolab, himoya etish va ruhiy faoliyatni rostdashni ko'zlab alohida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi.

ADABIYOT

1. Deti s zaderjkoy psixicheskogo rzvitiya. T.A.Vlasova, N.A.Sipina tahriri ostida. M., 1984
2. Maorif vazirligining «Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlar ochish» to'g'risidagi 1981 yil 3 iyul qarori.
3. K.S.Lebedinskaya, G.P.Barto'n, M.T.Dunaeva. Aktualno'e problemo' diagnostiki zaderjki psixicheskogo razvitiya detey. M., Pedagogika, 1982
4. S.D.Zabramnaya. Otkor umtvenno otstalo'x detey v spetsialno'e uchrejdeniya. M., Prosveshchenie, 1988
5. T.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, O'zbekiston maorif ministrligi, 1987
6. «Sovet maktabi» jurnali, 8-son, 1983 yil 33-36 betlar.
7. K.K.Mamedov, T.B.Shoumarov, V.P.Podobed. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T., 1999

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. R.R.S. bolalar boshqa anomal bolalardan nima bilan farq qiladi?
2. R.R.S. bolalar qaysi guruxlari mavjud?
3. Ruhiy rivojlanishdagi sustlik nimadan kelib chiqadi?
4. R.R.S. bolalar qaerdata'lim olishlari kerak va nima uchun?

V bob.

HARAKAT – TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN VA MUJASSAM NUJSONLI BOLALAR.

1\$ HARAKAT-TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN BOLALAR

Har qanday ota-ona o'z oilasida sog'lom farzandni, jismonan baquvvat, ruhan tetik, fikrlash qobiliyati sog'lom, iymon-e'tiqoldi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, har tomonlama kamol topishini istaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq respublikamizda sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. «Barkamol» avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu masalaga ustivor vazifa deb qaralmoqda. Mustaqil Vatanimizning birinchi ordeni «Sog'lom avlod uchun» deb atalgan, «Sog'lom avlod uchun» halqaro xayriya jamg'omasining tuzilganligi. 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni «Ona va bola yili» deb e'lon qilinganligi fikrimizning dalilidir. Prezidentimiz tomonidan «Sog'lom avlod» ruknidagi, maxsus yordamga

muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish, ularni sog'lom kishilar qatoriga qo'shish, ijtimoiy, moddiy jihatdan himoyalash, mehnatga, ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalariga doir qator qarorlar, xujjatlar chiqarilmoqda, qabul qilinmoqda.

Respublikamizda so'nggi paytlarda bolalarning sog'lom tug'ilishini ta'minlash, anomaliyalarning oldini olish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari ustida talaygina ishlr olib borilmoqda. Bu masalani tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida onaning xomiladorlik davridan boshlab to bola voyaga etgunga qadar uning rivojlanishi tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilar, psixolog, defektologlar tomonidan nazorat qilinib, »Sog'lom avlod« dasturini to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda, tashkil etilmoqda. Natijada, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar ham aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatilmoqda. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligga nogironlar aravachalari olib berilganligi sababli, ular bog'cha va maktablarga qatnay boshladilar.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), harakat-tayanch a'zolarining turli to'g'ma va orttirilgan deformasiyasi – artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruxligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya – tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklri o'sishining orqada qolishi, miopatiya – mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni xarakatga keltira olmaydi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi. Bolalar serebral falaj kasalligi hali etilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Onaning xomiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolani kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonolari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit etilishi kechikadi va buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi. Kishi organizmining asosiy funksiyalari – nafas olish, qon aylanish, yutunish, tana harakati, nutqiy harakatlar va boshqalar harakat orqali – mushaklarning qisqarish natijasida sodir etiladi. Harakatlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Aniq maqsadni ko'zlab bajarilgan ixtiyoriy harakatlar inson xatti-harakati, xissiy-irodaviy qobiliyati, bilish faoliyatini, hulqining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Kasallikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan harakat buzulishlari bolalar serebral falajida xar xil namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda bolalar miya falajining quyidagi shakllari qayd qilingan: spastik diplegiya, spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemiplegiya, paraplegiya, monoplegiya, atonik-astatik sindrom. Bolalar miya falajining eng keng tarqalgan shakli spastik diplegiya. Bu shakldagi kasallik qo'l va oyoq harakatlarining buzilishi bilan xarakterlanadi. Bunda ayniqsa oyoq qo'lga nisbatan ko'proq jarohatlangan bo'ladi. Jo'l oyoqlarini erkin harakatini chegaralanishi yoki butunlay xarakatsizlanishi mushaklarning kuchsizlanishi bilan birga kechadi. Bola qo'llarini tepaga ko'tarishga qiynaladi yoki umuman ko'tara olmaydi, oldinga, chetga uzata olmaydi, oyoqlarni bukolmaydi, yozolmaydi. Har qanday harakat sodir bo'lishi uchun mushak tonusi normal bo'lishi shart. Bolalar serebral falajida mushak tonusi juda baland bo'ladi, natijada bola o'ziga xos holatni qabul qiladi: tizzadan bukilgan oyoq barmoqlarga tiraladi, tirsaklar bukilib, qo'llar tanaga yopishganday bo'ladi; qo'l barmoklari bukilib, mushtlar hosil qiladi. SHartsiz majburiy harakat giperkinezlar shartli harakatlarni bajarilishini keskin qiyinlashtiradi yoki mutlaqo bajara olmasligiga olib keladi. Muvozanat harakatning buzilishi o'tirish, turish, yurishni qiyinlashtiradi yoki butunlay bajara olmaydigan holatga olib keladi. Kinesteziya – tana yoki tana qismlari harakatini sezish demakdir. Kinesteziya maxsus sezuvchi to'qimalar – proprioceptorlar orqali sodir bo'ladi. Bu to'qimalar mushak, pay, bo'g'imlarda joylashgan bo'ladi. Ular oliy nerv sistemasiga tana, qo'l, oyoqlarning xolati haqida, mushaklarning qiskarishi haqida ma'lumot beradi.

Spastik diplegiya shaklidagi bolalar miya falaji bilan kasallangan bolalar intellekti, fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ular umumta'lim maktablari dasturini a'lo baholar bilan o'zlashtira olishlari mumkin. Biroq bunday bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari ular uchun maxsus yordamni tashkil etilishini talab etadi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bog'cha va maktab yoshidagi bolalar uchun maxsus maktab internatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim bolalar umumta'lim ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda integrasiyalashgan inklyuziv ta'limga jalb etilmoqda. Maxsus muassasalarda barcha ta'lim-tarbiya ishlari korreksion yo'nalishda amalga oshiriladi. Ko'proq harakat funksiyalarini korreksiyalashga e'tibor beriladi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan maxsus muassasalarda harakat funksiyasini korreksiyalash ishlari kompleks tarzda, ya'ni bolaga har tomonlama ta'sir o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunga tibbiy dori-darmonlar bilan davolash, fizioterapevtik, ortopedik, uqalash-massaj, davolovchi gimnastika, jismoniy tarbiya, mehnatga o'rgatish ishlari kiradi.

Tibbiy dori-darmonlar bilan davolash ishlari mushak tonusini pasaytirish, giperkinez-majburiy harakatlarni kamaytirish, asab sistemasidagi kompensator jarayonining faolligini kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Fizioterapevtik muolajalar mushak tonusini pasaytirishga, mushaklardagi qon aylanishini yaxshilashga qaratiladi.

Ortopedik tadbirlar harakat-tayanch a'zolari, bo'yin, gavda harakatini yaxshilash, kerak bo'lsa ortopedik moslamalardan foydalanishni, har bir bola shaxsiy ortopedik rejimga rioya qilishga o'rgatishga qaratiladi.

Mushakdagi giperkinezlar bolaning nafaqat umumiy, balki nutqiy motorikasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq apparatining kam harakatlanishi (til, lab, jag', un paychalari, kichik til harakati buziladi) nutqning fonetik tomondan buzilishiga, ya'ni tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga olib keladi. Mushaklardagi giperkinezlar dizartriya yoki anartriya kabi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Diafragma, qovurg'a orasidagi mushaklar giperkinezi nutqiy nafas olishni, un paychalarining tebranishi, nutq maromini buzilishiga olib keladi. Nisbatan ko'proq uchraydigan dizartriyaning psevdobulbar shaklida artikulyasion tonus baland bo'ladi. Lab, til, kichik til, pastki jag', un paychalari harakatchanligi buziladi va natijada tovushlar talaffuzi, ovoz, nutq sur'ati nuqsonlari kuzatiladi. So'lak bezlari atrofidagi mushaklar qisqarmaganligi tufayli bola so'lagi oqib turadi. Bunday bola yaxshi chaynay olmaydi, yutulmaydi. Dizartrik bolaning nutqi noaniq, chuchmal, xirillagan, monoton bo'ladi. Dizartriya qanchalik barvaqt aniqlansa, uni bartaraf etish, korreksiyalash ham shunchalik oson bo'ladi. Uzoq muddat ichida sabr-toqat bilan olib borilgan logopedik ishlar natijasida yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkin.

Nutq apparatining innervasiyasiga bevosita bog'liq bo'lgan kalla suyak nervlarining jarohatlari ko'p hollarda ko'z harakati nervlarining jarohatlanishi bilan birga kuzatiladi. Natijada bola g'ilay, ko'zi olaygan, ko'z harakati buziladi. Bolalar o'z qo'z harakatlarini bir maromda bajara olmaydilar, mo'ljalga nigoh tashlay olmaydilar. Bunday kamchiliklar logopedik ishni to'g'ri olib borishga to'sqinlik qiladi. Bola artikulyasion apparat a'zolari harakatini kuzata olmaydi, rasmga qarab ishlash, o'qish va yozishni o'zlashtirishda qiynaladilar.

Mediko-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar inklyuziv ta'lim olishga yoki maxsus maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasiga maktab-internatlarga yuboriladi. Bu muassasalarga o'zlari yoki aravachada yura oladigan, o'zgalarning qaroviga muhtoj bo'lmagan bolalar qabul qilinadi. Sog'liqlarini tiklagach tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan o'quvchilarni umumta'lim bog'cha yoki maktabga o'tkaziladi. Maxsus maktab-internat pedagogik kengashi bitiruvchilariga ishga joylashish uchun tavsiyanoma beradi. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar I – II guruh nogironlari hisoblanib, ularni ishga joylashtirish ijtimoiy ta'minot bo'limlariga topshiriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIJLAR

1. Harakat-tayanch a'zolari buzilgan bolalar boshqa toifadagi anomal bolalardan nima bilan farq qiladilar?
2. Ushbu bolalardagi nuqson nimadan kelib chiqadi?

3. Bolalar serebral falaji deganda nimani tushunasiz?
4. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan kompleks yondoshgan holda qanday korreksion ishlar amalga oshiriladi?
5. Xarakat – tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar qaerda ta'lim-tarbiya olishlari kerak?

2\$. MUJASSAM NUKSONLI BOLALAR, ULARNING TA'RIFI

Dunyodagi 500 million aholining 10 foizi nogironlardir. SHular jumlasiga mujassam nuqsonli anomal bolalar ham kiradi. Mujassam nuqsonli anomal bolalarda bir necha nuqson birgalikda kuzatiladi., Ular kompleksli nuqsonli bolalar kategoriyasi deb ham nomlanadi. Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, nogironlikni oldini olish, ekologik muvozanatni yanada barqarorlashtirish yuzasidan mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi kunidanoq muayyan amaliy ishlar olib borilmoqda. Respublikada kasal bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi 1000 aholiga nisbatan 1991 yildagi 34, 5 dan 2000 yildag 21, 4 ga kamaydi. Demak hali ham bu borada ko'pgina ishlar olib borilishi lozim. Ayollar, ayniqsa, qizlar orasida uchraydigan chekish, spirtli ichimliklar ichish, narkotik moddalar is'temol qilish, shifokor maslahatisiz dori-darmon qabul qilinishi, ekologik muammolar va boshqa holatlar nogiron bolalar tug'ilishiga sabab bo'layotgani va uning oldini olish borasida ko'proq balog'at yoshidagi yigit-qizlar orasida tushuntirish ishlari keng tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Olimlar tomonidan aniqlangan 400 dan ortiq dori-darmonlar homila rivojlanishiga (dastlabki 1-2 oylar) salbiy ta'sir etar ekan.

Mujassam nuqsonli maxsus yordamga muhtoj toifasiga kar-ko'r-soqov bolalar, kar va aqlan zaif, ko'r va oligofren, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan va ko'r yoki aqlan zaif va h.k. kiradilar.

Oxirgi yillarda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar soni ancha kamaydi. Oftalmologik yutuqlar, erta diagnostikaning yangi usullarini ko'llanishi, ko'rish organlari kasalliklarini davolash va korreksiya qilish natijasida maxsus maktab o'quvchilarining kontingenti sezilarli darajada o'zgardi. Ko'r bolalar nisbatan kamaydi, ammo zaif ko'ruvchi bolalar soni ko'paydi. Ularning orasida maktab dasturini o'zlashtira olmaydigan bolalar yaqqol ko'rina boshlandi. Kompleks, ya'ni har tomonlama tekshirish, o'rganish natijasida ularning ko'rish qobiliyatini buzilishi bilan birga oligofreniya tipidagi aqli zaiflik ham mavjudligi aniqlandi. Zaif ko'ruvchi va aqli zaif bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash ancha murakkab va o'ziga xosdir. Odatda zaif ko'ruvchilardan ayrimlari va ko'r bolalar «Brayl» sistemasi bo'yicha o'qish va yozishni o'rganadilar. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim natijasida ko'r bolalar nuqta-releflni shiftni tez o'rganib oladilar. Aqli zaif ko'rlarda bu jarayon ancha sekin kechadi, uncha samarali bo'lmaydi. Bunga bir necha sabablar mavjud. Markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida aqli zaif ko'r bolaning kompensator imkoniyatlari sustlashgan bo'ladi. Maxsus tashkil etilgan ishlar tufayligina eshitish analizatorlari kompensator faoliyatni bajara boshlaydilar. Aqli zaif o'quvchilarning tafakkur, tasavvur, nutqi, fikrlash qobiliyatini o'stirishda yordamchi maktabda ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi. Ko'rlar maktabida bu borada ko'proq nutq, so'zga, maxsus tiflografik ko'rgazmali kurollarga asoslangan holda ish tashkil etilsa, aqli zaif ko'r bolalar bilan boshqacha ishlarni uyushtirish lozim bo'ladi. Ikkala holatda ham birinchi navbatda bolaning abstrakt tafakkuri yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Aqli zaif bolalarning esa bilish faoliyati turg'un buzilgan bo'ladi. Aqlan va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasiga maxsus yondoshgan holda, maxsus yaratilgan tizim asosida o'qitish va tarbiyalash lozim.

Mujassam nuqsonli bolalardan eshitish qobiliyati va aqli zaif bolalar birinchi bo'lib o'rganilgan edi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda ikkilamchi hodisa sifatida aqlan zaiflik kuzatilib boriladi. Natijada intellekti sog'lom, eshitish qobiliyati zaif bolalarni aqli zaif eshitish qobiliyati zaif bolalardan amalda ajratish ancha mushkul. Ayniqsa ilk yoshdagi bolalarda. Hozirgi kunda ular uchun differensial-dagnostik mezonlar ishlab chiqilgan. Aqli va eshitish qobiliyati zaif bolalar karlar yoki zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarining yordamchi sinflarida yordamchi maktab dasturi bo'yicha ta'lim oladilar. Yordamchi sinflar ko'rlar va zaif ko'ruvchi bolalar maktab-internatlarda ham mavjud.

Mujassam nuqsonli bolalar toifasiga ko'r-kar-soqov bolalar xam kiradi. Bu toifadagi bolalar nuqsoni ancha murakkab. Kar-ko'r-soqov bolalar tevarak atrofdan informatsiya olish imkoniyatidan mahrum bo'lganligi tufayli aqlan rivojlanmaydi. Biroq maxsus tashkil etilgan yordam tufayli bu bolalar tuliq intellektual rivojlanish imkoniyatiga egadirlar. Ularga barcha murakkab muloqot turlari yaratiladi, nutqi o'stiriladi va ular barkamol nutqdan tortib to so'z nutqigacha egallay oladilar. Bu esa ularni o'rta maktab dasturini egallab, xatto oliy o'quv yurtlarini muvaffaqiyatli bitirishga imkon beradi. Bunga Olga Ivanovna Skoroxodovaning hayoti va ijodini misol qilib keltirishimiz mumkin. Kar-ko'r-soqov qizchani mashhur defektolog Sokolyanskiy I.A. o'zi rahbarlik qilgan maktab-klinikada o'qitib, tarbiyalagan. Oliy o'quv yurtini tugatib, O.Skoroxodova butun hayotini defektologiyaga bag'ishladi. U Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti dosenti, pedagogika fanlari nomzodi, ko'pgina ilmiy maqola, she'rlar to'plami muallifi. Ayniqsa u yaratgan noyob kitoblar «Kak ya vosprinimayu okrujayushiy mir»(1947), «Kak ya vosprinimayu i predstavlyayu okrujayushiy mir»(1956), «Kak ya vosprinimayu, predstavlyayu i i ponimayu okrujayushiy mir»(1972) ko'pgina tillarga tarjima qilindi. Moskva viloyatining Zagors shahrida kar-ko'r-soqov bolalar bilan olib boriladigan ishlar tizimi takomillashtirildi. Ushbu maktab-internat o'z faoliyatini davom ettirmoqda va ko'pgina kar-ko'r-soqov bolalarga mustaqil hayotda o'z o'rnini topib ketishga yordam bermoqda.

ADABIYOT

1. Defektologicheskiy slovar. M., Pedagogika, 1970
2. Oilada serebral falaj bo'lgan ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. RTM, T., 1998
- R.SHomaxmudova., G.A.Sodiqova, Fayzieva U.YU
3. SHipiso'na L.M.Zamejnskaya O.V i dr. Azbuka obsheniya SPb. 1998..
4. V.A.Lapshin, B.P.Puzanov. Osnovo' defektologii. M., Prosveteniye, 1990
5. A.I.Mesheryakov. Slepogluxonemo'e deti. M., 1974
6. K.A.Semyonova, M.M.Maxmudova. Medisinskaya reabilitatsiya i sotsialnaya adaptatsiya bolno'x detskim serebralno'm paralichem. T., 1979
7. L.O.Badalyan, L.T.Jurba, O.V.Timonina. Detskiy serebralno'y paralich. Kiev, Zdorove, 1988
8. G.V.Dedyuxina, L.D.Moguchaya, T.A.YAno'shena. Logopedicheskiy massaj i lichelnaya fizkultura s detmi 3-5 let, stradayushimi detskim serebralno'm paralichom. M., Gnom-Press, 1999

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar nima uchun anomal bolalar kategoriyasidan biri sifatida o'rganiladi?
2. Nima uchun bolaning harakat-tayanch a'zolari jarohatlanadi?
3. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziga xosligi nimada?
4. Mujassam nuqsonli bolalar kategoriyasi boshqa anomal bolalardan nimasi bilan farq qiladi?